

Элчин
Сафарли

ҚАЙТГАНИМДА

ёхуд бахт ва айрилиқ
битигими тақдирнинг?

уйда бўл...

I qism

Bizning barchamiz kim – qachonlardir sho'rtob suvlikdan yorug' dunyoga qadam qo'yganmiz, zero dengiz hayotning beshigi hisoblanadi.

Endi bizlar usiz yashay olmaymiz. Faqat, endi tuzni alohida tanovul qilamiz va chuchuk suvni ham alohida ichamiz. Bizning limfa tugunlarimiz huddi dengiz suvinikidek tuzli tarkibga ega. Biz dengizdan kim – qachonlardir ajralib ketgan bo'lsak-da, u hamon har birimizning vujudimizda yashaydi.

Eng qaqroq sahroning ichkarisida yashaydigan odam ham o'zi sezmagan holda qonida dengizni olib yuradi.

Balki, shundanmi, odamlar dengizning betinim mavjlarini ko'rgisi, ularning abadiy g'alayonini eshitgisi kelaveradi.

Bu tovush tom ma'noda ularning ko'hna vatani sadosi, qonning chorlovidir.

Viktor Konetskiy

1

O'zinga azob o'ylab topma...

Bu yerda yil-o'n ikki oy qish hukmron. Ko'pincha chiyillab, ahyon-ahyonda esa o'kirib qoladigan ayozi bor, Ignadek shimol shamoli bu tap-taqir yerlar va uning aholisini o'z hukmronligiga asir qilgancha qo'yib yubormaydi. Ularning ko'pchiligi tug'ilganlaridan beri sadoqatlaridan g'ururlangancha bu yerlarni tark etishmagan. Yana yillar davomida bandidan uzilgan bargdek quloch yozib ummonning boshqa sohiliga qochib ketadiganlari ham bor. Bular asosan tirnoqlarini yorqin ranglarga bo'yab olgan qo'ng'ir sochli ayollar.

Ummon ortga chekinayotgan noyabrning so'ngi besh kunida ular bir qo'lga jamadonlari, boshqasi bilan bolalarini yetaklab jigarrang plashlariga o'ralgancha bandargoh tomonga shoshilishadi. Bu ayoqli

yerlarga sadoqatli ayollar esa derazalar qopqasidagi tirqishlardan qochib qolayotganlarni kuzatib qolarkan, ularga hasaddanmi, balki sadoqat va oqillikdan zaharhanda qilishadi.

«O'zlariga azob sotib olishayapti. Biz yetib bormagan joylarda hayot yaxshiroq, deya o'z yerlarining qadrini toptashmoqda...»

Oying ikkimizga esa bu yer yaxshi. Oqshomlari oying shamollar haqidagi kitoblarni ovoz chiqarib o'qiydi. Huddi sir-sinoat olamiga dahldordek, qaddini tik tutgancha, tantanavor ohanglarda. Bunday paytlarda Mariya huddi ob-havo ma'lumotlarini o'qiyotgan suxandonlarni eslatadi.

“...Tezlik sekundiga yigirma-qirq metrlarni tashkil qiladi. Yalpi sohilni egallagancha, to'xtovsiz esadi. Kuchayib borayotgan oqimlar ta'sirida bir necha kilometr yuqoriga ko'tarilgan shamol troposferaning quyi qatlamlarida ham kuzatiladi...”

Uning oldidagi stolda kutubxonaning bir necha kitoblari taxlangan, yonida quritilgan apelsin po'stlog'i va arg'ivonli choy damlangan choynak. Oyingni savolga tutaman.

“Shu tinib-tinchimas shamollarning nimasini yaxshi ko'rasan?”

U qo'lidagi finjonni likopga qo'ygancha yangi varaqni ochadi.

“U menga yoshligimni eslatadi.”

Qosh qorayganida deyarli ko'chaga chiqmayman. O'zimizning mana shu, roybush, yumshatilgan tuproq va sen yaxshi ko'radigan xo'jag'at qiyomli pechenye hidi anqiydigan uyimizda o'tiraman. Bu pechenye uyimizda hamma vaqt bor, oying sening ulushingni shkafga olib qo'yadi: unga haliyam sen jazirama ko'chadan oshxonaga rayxonli limonad va pechenye uchun birdan yugurib kirib keladigandek tuyulasan.

Qorong'u tunlar va ummonning qop-qora suvini yoqtirmayman, Dostu, ular senga bulgan sog'inchimni kuchaytirib yuboradi: Uyda,

Mariyaning yonida yengil tortaman, sen xam huddi yonimizdagidek tuyulasan.

Mayli, ko'nglingni buzgim yo'q, boshqa narsa haqida gapira qolay...

Oying ertalabdan tushgacha kutubxonada o'tiradi. Bu yerlarda kitoblar yagona ko'ngil yozadigan ermak. Boshqalari esa shamollaru rutubat va mahalliy xalqning fel-atvori tufayli qo'l yetmas orzuga o'xshaydi. Raqs to'garagi xam bor, lek u yerga hamma ham boravermaydi.

Men uyimiz yaqinidagi novvoyxonada ishlayman. Qo'lda hamir qoraman. Hamkorim Amir bilan turli: oq, javdar, zaytunli, ezilgan sabzavotli va anjirli nonlar yopamiz. Ular juda shirin chiqadi, senga xam yoqqan bulardi. Hamirturishni faqat qo'lolasidan foydalanamiz.

Dostu, non yopish mexnatsevarlik va sabr-toqatning qaxramonligi. Bu chetdan qaragan odamga tuyulganchalik oddiy emas. O'zimni bu ishsiz tasavvur qilolmayman, go'yo avvallari qilib yurgan hisob-kitob ishlarim birovning hayotida ro'y bergandek.

Seni soginaman...

Dadang

2

Bizga ko'p narsa berilgan, lek ularni qadrlamaymiz...

Dostu,

seni o'zlari bilmagan holda bizning yaxshi bo'lishimiz uchun hissa qo'shayotganlar bilan tanishtirmoqchiman. Yoshimiz yetmishga yaqinlashib qolganining nima ahamiyati bor! Hayot-hech kimga topshirib bo'lmaydigan yumushing, aniqrog'i o'z ustringda tinmay ishlashing. Ba'zan bundan charchaysan ham. Buning siri nimadaligini bilasanmi?

"Har kim o'z ezgu so'zi, muomalasi, gap-so'zsiz madadi, suyanchiq bo'la olishi, ochiq dasturxoni bilan hayot yo'lida yengil va boy berishlarsiz odimlashda yordam ko'rsatganlarni umri davomida uchrataveradi. Qaytar dunyo deganlari shumikan..."

Marsning ertalabdan kayfiyati yaxshi. Bugun yakshanba, Mariya bilan uydaligimiz uchun ertalabki sayrga hammamiz chiqdik. Issiqqina kiyinib, qo'limizga choyli termosni olgancha sokin paytlari chag'alaylar dam oladigan tashlandiq bandargoh tomon jo'nadik. Mars qushlarni xurkitmasdan ulardan beriroqda yotib oladi va ularga havas bilan termuladi. Itimiz qornini sovuq oldirmasligi uchun unga issiq kiyim tikib berganmiz.

Men Mariyadan nima uchun Mars xuddi odamlardek qushlarni kuzatishni yaxshi ko'rishini so'radim.

"Qushlar, biz odamlarga tuyulganidek, mutlaqo erkin va ozod. Ular bizga o'xshab dardlarini eslatadigan joylarga borolmay o'tirishmaydi..."

Dostu, kechirasan, gap bilan bo'lib seni Mars bilan tanishtirishni unutibman. Taska nomli zotdor it bilan oddiy ko'ppakning chatishtirilishidan dunyoga kelgan bu itimizni asrandixonadan olaganimizda juda qo'rqqoq va xurkak edi. Karamog'imizga oldik, mehr ko'rsatdik.

Uning o'tmishi juda ayanchli. Mars bir necha yilni qop-qorong'u yerto'lada o'tkazgan, berahm xo'jayini uni turli tajribalarga giriftor qilgan. O'sha berahm jallod bandalikni bajo keltirganidan so'ng arang jon saqlab qolgan kuchukchani qo'shnilar topib olishgan va valontyorlarga topshirishgan.

Mars bir o'zi, ayniqsa qorong'u tunlarda, tanho qololmaydi. Uning atrofida iloji boricha ko'pchilik bo'lishi kerak. Uni ko'pincha o'zim bilan ishxonamga olib ketaman. Badqovoqqina bo'lsayam, tanish-bilishlarim Marsni yaxshi ko'rishadi. Unga atab uylaridan yeguliklar olib kelishadi.

Biz uni nimaga "Mars" deb ataganimizni bilasanmi? Uning qizg'ish-olovrang junlari olis sayyora tabiati kabi sirli va maftunkor. Buning ustiga u o'zini sovuqda yaxshi his qiladi, qor uyumlarida umbaloq oshishni yaxshi ko'radi. Mars sayyorasi ham qizg'ish-olovrang tusga ega bo'lsada sovuqsevar. Xullas, itimizga o'zining ajoyib laqabi yarashadi.

Sayrdan qaytayotganimizda qor yanada kuchaydi. Qo'riqchi askarlardek tizilib olgan elektr ustunlarini tutashtirib turgan uzun-uzun simlar qordan qobiq yasay boshlaydi. Yo'lovchilarning ayrimlari yog'ayotgan qordan quvonib, kiprigiga qo'nayotgan qor parchalarini tomosha qilishdan zavqlanganbir paytda boshqalari so'kingancha tezroq odimlashga tushdi.

Dostu, bilasanmi, kishilar bir-birlariga xalal bermasliklari naqadar muhim bu hayot onlarida. Mayli, ular yaratayotgan mo'jiza kichik va oddiygina bo'lsin. Har kimda o'ziga xos sokinlik mavjud. Kimdir oddiygina oppoq varaq qarshisida, kimdir deraza pardasi ko'tarilgan oshxonada, yana kimdir chekka qishloqdagi shifoxonada, boshqa biri esa jimjit zalning sahnasida....

Buni qaraki, tashqariga chiqarishdan cho'chigancha botinida g'aroyibot yaratayotganlar ham ozchilik emas.

Yaqinlaring iqtidorini shubha ostiga olish yaxshimas. Oq varaqqa tikilgancha ilhomi bilan suhbatlashayotgan, pishirgan taomini tatib ko'rib sevinadigan kishisi deraza ortida paydo bo'lishini kutayotgan, balanddagi buyuk ishlarni pastdagi oddiy yumushlardan boshlagan, jimjitlikda gulduros qarsaklarni tinglay olayotgan kishilarga halal berishning nima keragi bor.

Odamlarga juda ko'p narsalar shunchaki tekinga beriladi. Ular esa haqiqiy go'zallikni qadrlash o'rniga uning qiymati va to'lovi ustida bosh qotiradi. Umr deya atalmish ne'mat o'tib borayotgan lahzadan lazzatlanish o'rniga qora kunlariga yig'inadi....

Seni sog'indim!

Dadang

3

Qayiqdasan, qayoqqa suzayotganingni unutma!

Dostu,

bizning oppoq uyimiz ummondan 34 qadam beri joylashgan. U ko'p yillardan beri bo'm-bo'sh, unga eltadigan yo'llar esa qalin muz bilan qoplangan. Mo'rkoni qum chag'alaylar pati va sichqon tezagi bilan to'la. Pechkasi olovni devorlari esa iliq haroratni unutib qo'ygan. Muzlagan deraza oynalaridan ummon deyarli ko'rinmasdi.

Shu yerliklar bu uydan hadiksirashadi va uni " мечес" ya'ni "og'riq keltiruvchi" deb atashadi.

"Bu uyda yashaganlar o'z qo'rquvlari asiriga aylanishib, esdan ayrilganlar..."

Bunday axmoqona ta'riflar ham bizni to'xtatib qololmadi va unga qadam qo'yganimizdayoq bu uyni yaxshi ko'rib qoldik. Balki kimlarga u zindonga o'xshab qolgandir, ammo bizlar uchun chinakam baxt qasriga aylandi.

Ko'chib kelgan zaxotimiz pechkaga o't qaladik, choy damladik, tuni bilan iliqlik singan devorlarga ertasi kuni bo'yoq tortik. Oying binafsha va lavanda oralig'idagi "yulduzli tun" rangini tanladi. Ajoyib manzara.

Bizga bu rang yoqib qolganligidan devorlarga rasmlar osib ularni to'sib qo'ymaslikka kelishdik.

Endi uyimiz ichida ham yulduzli tunimiz bor.

Pechka atrofiga surat ilmagan bo'lsakda mexmonxonamiz devorlaridagi tokchalarni to'ldirdik. Do'stu, tokchalar sening bolalik olamingni to'ldirgan rangli kitoblar bilan to'la.

Oying aytgan gaplar esingdami? Bu o'g'itlarni sirg'a qilib taqaningga shubxa yo'q.

"Agar ishlaring o'xshamasa qo'linga yaxshi kitobni ol u yordam beradi!"

Olisdan uyimiz qorning oqligiga qo'shilib ketti. Ertalablari oppoq kenglikka qarab ko'zing qamashadi. Faqat ummoning ko'kimtir sahni va O'zg'irning zanglagan yonlari ko'rinadi, xolos. Bu bizning do'stimiz, uning suratini ham yuboryapman tanishib ol.

O'zgalar uchun bu alimsoqdan qolgan baliqchilar kateri. Biz uchun esa o'zgarishlarni mardlarcha qabul qilish muhim ekanligini eslatadigan qadrdonimiz. Bir paytlar O'zg'ir haybatli to'lqinlar qanotida ummon bag'riga to'r otgancha yarqirab suzib yurgan, endi esa xorg'in va yuvosh holda qirg'oq labida kun ko'rmoqda. U hamon mavjudligi va ummonni olisdan bo'lsa-da ko'rib turganidan xursand.

O'zg'irning kayutasidan turli g'aroyib fikrlar bilan to'ldirilgan bort jurnalini topib oldim. Qaydnoma daftari shu yerliklar lahjasida to'ldirilgan. Bu yozuvlar kimga tegishli ekanligi noma'lum bo'lsa-da, O'zg'ir xotira daftari orqali biz bilan gaplashmoqda, degan qarorga keldim.

Kecha O'zg'irdan taqdir hukmiga ishonish – ishonmasligini so'radim. Jurnalning uchinchi sahifasidagi yozuvlar meni hayratga soldi.

"...Bizga vaqtni boshqarish hukmi berilmagan, ammo uni nima bilan va qanday to'ldirishni o'zimiz hal qilamiz. "

O'tgan yili mahalliy hokimiyat vakillari O'zg'irni metall-lomga topshirib yubormoqchi bo'lishdi. Agar Mariya bo'lmaganida katerning umri yakuniga yetardi. U katerni hovlimiz yoniga tashitib keldi.

Dostu qizim, o'tmish va kelajak bugundan ko'ra ahamiyatliroq emas. Bu dunyo sufiylarning marosim raqsi hisoblangan semaga monand: bir qo'l kafti bilan duo talabida osmonga qaragan bo'lsa, boshqasi olganini baham ko'rish uchun yerga qaragan holda.

Hamma gapirayotganda sukut saqla. So'zlaring sevgi haqida jaranglasa ham, jarangiga ko'zyoshlaring hamrohlik qilsa gapir! Yoningdagilarni kechira olishni o'rgan, shunda o'zing ham kechirilishga muyassar bo'lasan. Shoshqaloqlik qilma, ammo qayig'ing qayoqqa suzayotganini ham esdan chiqarma. Balki, u yo'lidan adashgandir?

Sog'inch bilan...

Dadang

4

Hayot – bu shunchaki yo'l... Odimlashdan lazzat ol!

Dostu,

bu bilan shaxarga jomadonlarimiz bilan yaqinlashganimizda yagona yo'lni ko'z ochirmaydigan, qahrli va qalindan-qalin qorburon to'sib qo'ygandi. Hech narsa ko'rinmasdi. Yo'l chetidagi qarag'aylar shoxi bo'rondan chayqalayotgan mashinani daralab qoldirdi.

Bu yerga kelishmizdan bir kun oldin ob-xavo ma'lumotiga qaragandik: bo'rondan xech qanday darak yo'q edi, Bo'ron xaqidagi xadigimiz qanday tez unut bo'lgan bo'lsa, u xuddi shunday bir lahzada boshlandi. O'sha daqiqalar ichra uning ohiri ko'rinmaydigandek edi.

Mariya ortga qaytishni taklif kildi. Odatda irodali va xotirjam oying ham sarosimaga tushib qolgandi.

“Bu biz uchun yo'lga chiqmasizimiz belgisi! Mashinani ortga qaytaring!”

Ko'nishimga sal qoldi...

Ammo oldimizdagi g'ovdan keyin bizni nimalar kutib turganligini yodga oldim: baxt qasrimizga aylanajak oppoq uy, bepoyon to'lqinlarga ega ummon, apg'uvon taxta ustidagi issiq non xidi, Van Gogning kamin ustidagi chorcho'pli "Lolalar dalasi", asrandixonada bizlarni kutayotgan Marsning tumshug'i va yana ko'p narsalar ko'z oldimga keldi va gazni bosdim. Olg'a!

Agar o'shanda biz o'tmishga qaytganimizda ko'p narsalarni qo'ldan chiqarardik. Bu xatlar ham bo'lmasdi. Aynan qo'rquv, ha, ko'pchilik o'ylaganidek zulm emas, qo'rquv va hadik muxabbatning asl qiyofasini to'sadi. Shuningdek, agar qo'rquvni boshkara olmasang, ilohiy iqtidor ham tavqi la'natga evrilib, vayronagarchiliklar olib kelishi mumkin.

Dostu qizim, yoshing bir joyga borib aolganida hayot saboqlarini qabul qilish qanchalar qiziqarli ekanini bilasanmi? Odamning ulkan joxilligi – barcha - barchasini boshidan kechirgani va his qilganligiga bo'lgan ishonchi. Bu esa haqiqiy keksalik va o'limdir. Keksalik deganim ajinlaru oqargan sochlar emas, o'lim deganiyam nafas olishdan to'xtash degani emas. Bu o'lim kurashdan iborat hayot sahnasidan qo'l siltab ketmoq...

Bizning asrandixonada tasodifan tanishib qolgan Jan ismli psixolog do'stimiz bor. Biz Marsni, u esa dumsiz malla mushukni olgani borgan ekan. Yaqinda Jan odamlar orasida o'z hayotlaridan qoniqish-qoniqmasligi to'g'risida so'rovnoma o'tkazdi. Ko'pchilik ijobiy javob berdi. Shunda Jan navbatdagi savolini berdi: "Sizlar shu holatda yana yuz yil yashashni xoxlaysizmi?" Javob o'rnida kishilarning yuzlari burishib ketdi.

Odamlar shodon yashagan hollarida ham o'z-o'zlaridan bezor bo'lib ketishadi. Ular o'zlari ko'nikkan shart-sharoitlaridan, muqaddas bilgan e'tiqodidan, yaxshi-yomon a'mollaridan, qolaversa mehr-muhabbatidan evaziga biror narsa kutishadi.

"Hayot-shunchaki yo'l. Odimlashdan lazzat ol! "

Jan tabassum bilan bizni uyiga, piyozli piyova sho'rva ichishga taklif qiladi. Mehmondorchilikni keyingi yakshanbaga qoldirdik. Balki, bizga qo'shilarsan?

Kutib qolamiz...

Dadang

5

Biz bir-birimizga juda kerakmiz...

Qizim Dostu,

piyozli piyova sho'rva juda zo'r chiqdi. Uning tayyorlanishini ayniqsa Jan sarimsoq surtilgan qotgan nonlarni sho'rvali ko'zchalarga biqtirib, ustidan ziravor sepgancha duxovkaga tiqqan onlarni kuzatish juda maroqli. Ikki daqiqadan so'ng biz farangcha sho'rvadan lazzatlandik. Tansiq taomga oq vino hamrohlik qildi.

Biz anchadan beri piyozli piyovadan totib ko'rishni istardigu hech vaqt-soatini topolmay garang edik. Uning bunchalar shirin bo'lishi xayolimizgayam kelmagan ekan. Maktab davridagi katta-katta parraklangan piyoz bo'laklari suzib yurgan shiltiq sho'rva hech kimning ishtahasini ochmasdi-da...

"... Menimcha, fransuzlarning o'zlari ham bu g'aroyib taomni qanday tayyorlanishini unutib yuborishganlari sababli doim biri-biridan shirin yangi retseptlarni o'ylab topishadi. Eng muhimi - piyozning shirin navlaridan keraklisini tanlash. Shakar qo'shish esa ilojisiz hollardagina zarur. Yana sho'rvani kim bilan tanovul qilishingiz ham muhim. Fransuzlar piyozli piyovani yolg'iz ichishmaydi. "BUNING UCHUN U HADDAN TASHQARI ISSIQ VA LAZZATLI", der edi mening Izabellam."

Jan buvisini shunday atagan. Uning ota-onasi avtohalokatda nobut bo'lganlarida Jan hali bolakay edi. Uni Izabella xonim tarbiya qilgan. Ujuda oqila ayol bo'lganiga isjonchim komil. Buvisining tug'ilgan

kunida Jan piyozli sho'rva qaynatadi, do'stlarini chorlaydi va jilmaygancha bolaligini xotirlaydi.

Jan Fransiyaning shimolida, dunyodagi barcha rassomlar, shular jumlasidan Mone ham manzaralar chizgani keladigan Barbizon shahridan.

"Mening Izabellam menga odamlarni sevish va boshqalarga o'xshamaganlarga yordam berishni o'rgatdi. Balki, bundaylar o'shanda, bizning mingtacha aholisi bor kichik qishlog'imizda boshqalardan ajralib turishgani va bu ularni og'ir ahvolga solganligidan bo'lsa kerak. Buvim aytishicha, o'rtamiyonalik-hukmronlikni qo'lga olganlarning o'ylab topgan aqidasi bo'lib, bizlarni kamsitish va o'ylab topgan ideallariga muvofiq kelmasligimizni pesh qilish quroli bo'lgan. O'zlarini allaqanday illatlilar toifasiga kiritib qo'yganlarni boshqarish osonroq emish... U meni maktabga kuzatib qo'yarkan, har gal bir gapni turli jumlar orqali uqtirardi.

"BUGUN SEN O'ZINGDAGI BETAKRORLIKNI UCHRATASAN DEB UMID QILAMAN!" derdi rahmatli..."

... Dostu, o'sha kecha juda ajoyib edi. Chor-atrofimiz ajoyib xotiralar, ishtaha ochuvchi iforlar, ta'mning yangicha mazasi bilan to'liq edi.

To'kin dasturxon atrofida o'tirardik, radiodan esa Toni Bennettning "Life is beautiful" taronasi taralayotgandi. Oyoqlarimiz ostida qorni to'ygan Mars va mezbon mushuk Matis uxlardi. Bizni yorug' xotirjamlik og'ushiga olgandi, bir so'z bilan aytganda, hayot davom etardi.

Jan Izabella xonimni, Mariya ikkimiz esa o'zimizning bobo-yu buvilarimizni eslardik. Biz ulardan xayolan uzr so'rar va hayotiy saboqlarimiz uchun tashakkurlarimizni bildirardik. Biz ulg'aygan sari ularning g'amxo'rliklariga kamroq muhtoj bo'lganligimiz uchun unutib qo'yganday edik. Ular esa baribir bizlarni sevishda, kutishda davom etishgan.

Dostu, bu g'alati dunyoda bizlar bir-birimizga g'oyatda kerakmiz.

Unutma, bizga keraksan!

Dadang

6

Bizning yagona burchimiz-hayotni sevish

Dostu,

sen ham ba'zan g'alati, g'ayrioddiy holatlarga duch kelsang kerak. Jan bu holatni reinkarnatsiyaning namoyon bo'lishi, deb ta'riflaydi. Barhayot ruh o'zining yangi holatida avvalgi vujudida his qilgan narsalarni xotirlab qoladi. Bunga aql bovar qilishi qiyin.

"Cheksiz koinot mana shu mitti zamindagi o'lim deb atalmish hilqatdan qo'rqmaslik kerakligi, borliq abadiy ekanligini uqtirib turadi..."

Keyingi yigirma yillik hayotimda men bilan bunaqangi g'ayritabiiy holat ro'y bermadi. Ammo kechagina yoshligimdagi lahza aynan takrorlanganini his qildim. Kechga yaqin bo'ron ko'tarildi va biz Amir bilan ishlarni barvaqtroq saranjomladik: u ertalabki non uchun xamirturishni achitishga qo'ydi, men qat-qat kulcha uchun koritsali olmalarni dimlashga qo'ydim. Bu yangi kulchamiz mijozlarga yoqib qolgandi. Qatlamli xamir tez yetiladi, shuning uchun ichiga solinadiganlarni kechki payt tayyorlab qo'yamiz.

Kechki yettilarda novvoyxonani yopib qo'ydik.

Tubidagi sokinlikni yashirgancha sirtida g'alayon kelgan ummonni yoqalab uyga qaytayotgandim. Sohil bo'ylab odimlarkanman chetdan qaraganda sirtimda xotirjamlik libosini kiyib olgandek edim, biroq ichimda o'z o'y-xayollarim to'lqinida chayqalardim. Bir vaqt yuzimga izg'irin og'riqli ignalarini sanchishga tushdi. Yuzlarimni izg'irindan yashirgancha xayolan ellik yillar burungi xotiralarimga ko'chib o'tdim.

O'n sakkiz yoshdaman...

Urush...

Bizning batalon uzunligi 70 kilometrlik tog'da joylashgan chegarani mudofaa qiladi. 20 daraja sovuq. Tungi bosqindan so'ng juda kamchilik qolgandik. O'ng yelkamdan olgan jarohatimga qaramay postni tashlab ketmagandim. Yegulik tugagan, suv ham jindakkina, buyruq tonggacha turib berish!

Yordamchi kuchlar yo'lda. Har daqiqada dushmanlar batalon qoldig'ini yakson qilib tashlashi tayin.

Sovqotgan va kuchdan qolgan, vaqt-vaqti bilan og'riqdan hushimni yo'qotgancha postda turardim. Bo'ron qutirgandan-qutirar, har tomondan hamla qilardi.

Dostu, ana shunda men ilk bor noumidlik iskanjasida qoldim. U asta-sekinlik bilan ich-ichimni to'ldirdi, unga qarshilik qilishga madorim qolmadi. Bunday damlarda duo o'qishgayam diqqatingni jamlay olmay qolarkansan kishi. Kutasan. Yo hayot, yo mamot...

Bilasanmi, o'shanda meni nima asrab qoldi? Bolaligimda eshitgan bir hodisa. Uydagi kattalar gaplashib o'tirgan stol ostida berkinib o'tirgan paytimda Anna buvim ana shu hodisani hikoya qilib bergandi. Buvim shafqat hamshirasi sifatida Leningrad qamalini boshidan o'tkazgan.

Buvimning eslashicha, shaharni tinimsiz to'pga tutish payti oshpaz ayol yerto'ladagi jonsaqlash maskanida gorelkada sho'rva qaynatayotgan ekan. Sho'rvagayam kim nimani topgan bo'lsa shuni solishgan: birovdan kartoshka, boshqasidan piyoz, kimdandir tinchlik kunlaridan qolgan bir hovuch yorma deganlariday. Sho'rva deyarli tayyor bo'lganida oshpaz ayol qopqoqni stolga qo'yib mazasini ko'rgach, qopqoqni qayta yopibdi: "Yana besh daqiqadan so'ng tayyor bo'ladi!" Madorsiz odamlar ne-ne umidlar bilam navbatga turishibdi.

Ammo o'sha sho'rvani ichish ularga nasib qilmagan. Sho'rvaga bir bo'lak sovun tushib qolgan ekan: oshpaz ayol qopqoqni stolga qo'ygan payti unga sovun bo'lagi yopishibdi-qo'yibdi. Ming afsus, ishqorli sovun qo'shilib qaynagan taomni ichib bo'lmasdi. Besh daqiqa ichida qozon yonida och-nahor kishilar turnaqator bo'lib tizilishgan. Tayyor sho'rvani suzishdan oldin yana bir bor ta'tib ko'rgan oshpaz ayol yig'lab yuboribdi...

Hech kim unga tanbeh bermagan, tazyiq o'tkazmagan, ola qaramagan. Eng og'ir vaziyatlarda ham odamlar insoniylikni yo'qotishmagan.

Ana shu kuni postda turgan paytim Anna buvim aytib bergan voqeani qayta-qayta esladim. Kuch topdim. Tong otdi, yordam kuchlari ham yetib keldi. Meni gospitalga olib ketishdi

Dostu, odam qanchalar utinmasin, hayot sir-sinoatini to'laligicha idrok eta olmaydi. Biz ko'p narsalarning qanday va nima uchun aynan shunday tuzilganligini tushunib yetganday bo'lamiz o'zimizcha. Ammo har bir yangi kunning qo'ydi-chiqdilari, mayda tashvishlariga yechim topolmay qolishimiz - bizlar hamon ona suti og'zidan ketmagan bandalar ekanimizni isbotlaydi. Bizning yagona burchimiz - hayotni sevish, bir-birimizni ardoqlash.

ARDOG'IMDASAN...

Dadang

7

Men seni qancha kerak bo'lsa, shuncha kutaman!

Dostu,

men oying bilan tanishgan paytim u erli juvon edi. U 27,men esa 32 yoshda edim. Men o'sha zahoti unga bo'lgan hislarim haqida og'iz ochdim. Bilaman, oilali ayolga bunday deyish ayni beodoblik. O'rtamizda chizilgan odob va iffat chizig'idan faqat so'z izhorimgina uchib o'tdi.

"Sizni qancha kerak bo'lsa, shuncha kuta olaman... "

Mariya ishlaydigan kutubxonaga faqat kitob olgani borardim. Mariyani, garchi u yonimga kelishga va'da bermagan bo'lsa ham, to'rt yil kutdim.

Keyinchalik bildim: meni bir kuni o'zidan sovib, taqdirga tan berib ketadi, deb o'ylagan. Ammo men o'z tanlovimda qat'iy edim. Bu bir qarashdagi oniy muhabbat bo'lmay, azal-azaldan men uchun yaralga xilqat edi. O'sha ilk ko'rgan paytimdayoq mana shu qizg'ish sochli ayol mening rafiqamga aylanadi, deya o'yladim. Shunday bo'lib chiqdi ham.

Menga uning hech narsasi emas, o'zi kerak ed. U menga farzandlar tug'ib berishi va uyimni osoyishtalikka to'ldirishi, ikkimizni uchrashtirgan yo'lda doimiy hamrohim bo'lishi... Bu kabi rejalar umuman xayolimga kelmagan. Har qanday sharoitda ham birga bo'lishimizga chuqur ishonch boshqa har qanday shubha-gumonlarni bir chetga supurib tashlagandi. O'zimni ovutishim mumkin edi, lek hislarimni alday olmasdim...

Mariya bilan uchrashuvim - bu umid yo'qday tuyulgan paytda xam ikkilanishdan xoli bo'lganim edi.

Men ishonardim. Azal-azaldan hayot yo'limiz biz istagan chorraxada kesishishini bilardim. Yo'llar ayroligida ishora qiluvchi sabablar etarlicha edi, biroq barbir ishonardim.

O'z taqdiri bilan uchrashishga xar kimsa loyiq. Lek bu narsa xamma taqdir peshonada xam sodir bo'lavermaydi.

Ayrimlarda iroda etmaydi, tanlagan yo'lini boshqa so'qmoqqa buradi. Boshqalari esa hafsala qilmaydi. O'tmishning muvaffaqiyatsiz tajribasini o'z kuchini ko'rsatadi. Kimdir esa boriga baraka qilganicha taqdir in'om etganidan ortig'iga umid qilmay qo'yadi.

Sening dunyoga kelishing Mariya ikkimizning oramizdagi ittifoqni yanada mustahkamladi. Biz bir-birimiz va ishimizga shu qadar mahliyo edikki bir kun farzandli bo'lishimiz hayolimizga xam kelmagandi.

Muhabbatni do'stlik va ehtirosning ajoyib uyg'unligi deb atab yurgan ekanmiz.

Muhabbat - bu oila ekan. Qanday tushuntirsam ekan senga, ehtirosga to'la yuraklar aqilligining bir qumg'on atrofida, bir qo'rg'on ostida faravon hayot kechirish ekan. Hullas hayot bizga mo'jiza ato edi.

Bu sen eding...Bizning qalbimiz va vujudimiz qovushib, yagonalik kasb etdi. Hayot so'qmog'imiz umumiy yo'lga aylandi. To'g'ri, bu yo'l bir tekis emas. Ba'zan xatolarga yo'l qo'yganimiz rost. Biroq iloji boricha qumg'ondagi gulxanni o'chirmadik, qo'rg'on soyasidan chetga chiqmadik, seni sevishdan asrashdan to'xtamadik.

Mariya seni tebratayotib xavotirga tushadi. Men bunga javoban jilmayib qo'yaman.

"Qizimizdagi o'zgarishlar kun sayin shu qadar tezlashmoqdaki, qani endi iloji bo'lsa-yu, vaqtni to'xtata olsa, to'yib-to'yib tikilib boqsam... "

Uyqu elitayotgan ko'zlaringni ochgancha tabassum qilasan. Shunday ota-onang borligidan baxtiyorsan go'yo. Bizga hech narsa bundan ortiq baxt tortiq qilmagan...

Dostu, baxtga eltuvchi yo'llardagi g'ovlar - ongosti saroblari, qo'rquvlar - puch xavotirlardan o'zga narsa emas. Orzularimiz - bizlarning haqiqiy voqeiylikimiz.

Seni sog'inib,

Dadang

8

Aqlsizlikning yarmi oqillikdan nishona, oqillikning yarmi aqlsizlikdan...

Dostu,

yaqin-yaqingacha novboyxonamizda Umid ismli asovgina oqko'ngil yigit ham ishlardi. Uning vazifasi - pishiriqlarni mijozlarining uyiga yetkazib berish. Mijozlarimiz, ayniqsa keksaroq yoshdagilar uni juda yoqtirishadi. U onda-sondagina tabassum qilsa-da, juda sermulozamat edi. Yigirma yoshli Umid menga ichi norozilikka to'la-yu og'zi berk, istalgan paytda tashqariga otilib chiqishga shay vulqonni eslatardi.

Umid diniy maktabda tahsil olgan, komillika erishgan inson bo'lishni orzu qilardi. Balog'at ostonasida nimadir bo'lganu o'qishni tashlagan, uyidan bosh olib ketgan.

"Ko'pchilik e'tiqodlilar asl qiyofalarini yashirib, riyoga qo'l urishadi!"

Kuni kechagina Umid ishdan bo'shamoqchiligini aytdi. Ko'chib ketarmish..

"... Bu la'nati shaharda ortiq bir kun ham yashamayman. Uning tasqaraligini - betakrorlik, jamiyatning yasamaligini - o'ziga xos mentalitet deb o'zimni yupatish jonimga tegdi. Sizdek, yangi kelganlarga uning tag-zamirigacha chirib ketganligi ko'rinmaydi. Bu yerning abadiy qishi ham geografik joylashuvidan emas, la'natlanganining oqibati.

Hukumatga qarang, qarang vatanga muhabbat xaqida safsata bilan mashg'ul. Vatanparvarlik haqida og'iz ko'pirtirishmoqdami, demagki yaxshigina og'irlikka qo'l urilgan. Bunda bizning ham aybimiz bor. Ularni saylayotgan vaqtda bodroq egancha televizorga mahliyo bo'lib o'tirganmiz!

Amir Umidga yaxshilab o'ylab ko'rishni maslahat berdi, men esa sukut saqlashni afzal bildim.

O'zimning o'smirligimni yaxshi eslayman - meni to'xtatib qoladigan kuch yo'qday edi. Zarbli qarorlarim oltinga intilishimga yordam bergani rost, lekin... ehtiros va to'g'ri qaror orasida osmon bilan ercha masofa bor.

Dostu, mening bobom Barish diniy maktabda muallim bo'lganini bilarsan? Men bobom bilan Xudo xaqida ko'p suhbat qurardim. Men tepamda turgan, meni tevarak-la o'ral olgan ilohiy kuchlarni qalban his qilardim, ammo ayrim diniy aqidalar ichimda norozichilik uyg'otardi.

Bir kuni Barish bobomning maktabda yuz bergan navbatdagi adolatsizlikka xotirjam hotirjam munosabatda bo'lganligidan g'azabga tushganim esimda.

«Bobo, hammasining o'z vaqti-soati borligi yolg'on! Bizning irodamiz ko'p narsaga qodir! Hech qanday mo'jiza yo'q, taqdir hukmi - bo'lmagan gap!

Hammasini o'zimiz, urodamiz hal qiladi!»

Bobom mening kaftimga qoqdi. U yana vazmin ohangi bilan olov yuragimga suv sachratardi....

«Sening gaplaringdan ham ko'rish mumkinki, hayotda har kimning o'z yo'li, uslubi bor. Bundan qirq yillar avvalgi paytlarim sen bilan hamfikir bo'la olardim. Endi esa Yaratgan hamma vaqt yonimizdaligi va barchasi uning izmidaligini tushunaman. Bizlar esa xuddi yosh bolalardekmi...

Qaysi birimiz intiluvchan, qat'iy, kimdir esa, aksincha shunchaki tomoshabin. Tepadagilar bizni qanday ko'rishni xohlamasin, biz o'zligimizdan kecholmaymiz. Ezgu ishlarimizni ko'paytirib, illatlarimizdan qutilish uchun o'zimizni sindirishni istamaymiz...»

O'shanda bobomning gaplari uydirmadek ko'ringandi. Biroq yillar osha o'zimga ilohiylikdan taskin topish uchunmas, bu dunyodagi barcha narsa muvozanatdaligidan: aqilsizlikning yarmini oqillik, oqillikning yarmini esa aqilsizlik tashkil etganligidan bu fikrga muroja'at etmoqdaman.

Umidni ko'ndirib bo'lmadi. Ba'zan odamlarni yomonligi uchun ham sevmasdan bo'lmasligini tushunishi uchun u ketishi kerak edi...

Qalbinga quloq sol!

Dadang.

9

Vaqtning izmida ekanligingni unut, bari iziga tushadi...

Dostu,

bugun nihoyat men litvaliklar nonini yopa oldim. Bunga bir necha haftadan beri urinardimu o'xshatolmasdim. Goh juda shirin, goh esa g'oyatda nordon bo'lib chiqardi. Bu non o'z ta'miga ko'ra nordon, uni asal yordamida me'yorga keltirishadi. O'sha me'yorning oltin oralig'ini topolmay xunob edim. Yana xamirni risoladagidek tindirishni eplay olmayotgandim, pishgan batonlarning yorig'idan ichidagi yumshoq mag'zi mo'ralab qolardi.

Amir litvaliklar retsepti bo'yicha tayyorlangan xamir juda sezgir bo'lishi, uning tayyorlanish jarayoniga bor diqqatni jam qilish zarurligini tushuntirdi. Bu xamirni qorayotganda boshqa narsaga chalg'imaslik kerak.

"Vaqt izmida ekanligingni unut va bari izga tushadi... "

Urinib ko'rdim...

Non juda yaxshi, bus-butun, ko'rinishi esa shokolad rangida, judayam ishtaha ochadigan bo'lib chiqdi. Ikkinchi-uchinchi kunlarda yanada mazali bo'lib bordi.

Dostu, u senga ham yoqqan bo'lardi!

Bizning xafsalamiz sovushiga sabab ko'pincha voqeylikdan uzilib qolgancha o'tmish xotiralari yoki kelajakni kutishimizga band bo'lib qolishimizda.

Qizim, men seni ko'lincha shoshiltirardim, uzr. Seni ko'p narsaga ulgirishingni xohlardim. Balki o'z bolaligimda ko'p narsalarni boy

berganim bunga sabab bo'lgandir? Urishdan kiyingi davrlar maktab va kutubxonalarni qaytadan qurishgandi. Menda o'qish, bilish, idrok etish uchun shu qadar ko'p istaklar bor edi-yu, ammo imkoniyatim yo'q edi.

Bolam meni taqdirimni takrorlamasin deya qo'rqardim...

Sening murg'ak hayoting o'z maromiga ega holida seni shoshilishga undab ancha qiynab qo'ygandim.

Avvaliga sening sustkashligingdan xavotirga tushganman, keyinroq qarasam xammasi joyida. Dostu xammasiga ulguryapti.

Esengdami, boshlang'ich sinflar muallimasi Liza Burinovna seni «aqli toshbaqacha» deb atagan edi. Sen bundan hafa bo'lmading. Aksincha, xursand bo'lgancha bizdan tug'ilgan kunga akvarium toshbaqasi sovg'a qilishimizni so'rab, uni o'z noming bilan atamoqchiligingni aytganding.

Sen oying ikkimizga lahzani qadrlashni o'rgatding. Biz buni tushunmasdik, xuddi uloqchi otlardek elib-yugurib , xammasiga bir vaqtda ulgurishga urinardik.

Kim-qancha yillar ko'p narsalar: osudalik, xotirjamlik, bir holatdan boshqasiga o'tishlarni qo'ldan chiqarganimizni his qilish uchun to'xtash va o'zimizga vaqt qoldirmaganimizni anglash uchun sendan ayrilish, bo'shliqqa duch kelish va bu erga ko'cib kelishimiz kerak edi

Bu erda, abadiy qish shahrida ajoyib purma'no xalq ahli bor.

«O'zing sira bo'lmagan joyga birovni boshlab kela olmaysan!»

Odamlar o'zlarini xatti-xarakatlari bilangina baholashlari haqida yaqinda o'qib qoldim: ular o'limni, tog'rirog'i o'lim xaqidagi qo'rquvlarini unutishga xarakat qilisharkan. Yangi yutuqlarga, taassurotlarga bo'lgan intilish qayg'uli fikrlardan qochishga yordam berdi.

Qochishdan esa foyda yo'q!

To uning ko'zlariga tik boqmaguningcha qo'rquv oshib, tazyiq o'tkazaveradi. Tik qaraganingda esa qo'rqinchli narsaning o'zi yo'qligini tushunasan.

Shoshganingdan vaqtga tobe bo'lib qolish mumkinligini unutma!

Dadang

10

Seni quchog'imga olsam deyman...

Dostu,

senga yozgan nomalarimning orasida jo'natishga jazm qilolmaydiganlarim ham bor. Ular ham boshqalari kabi oq qog'ozga yozilgan, xatjildga solingan, ammo tamoman o'zgacha. Umidsizlik iskanjasida qolganini yashirolmay yozilgan so'zlardan bitilgan xatlar. Men bu xatlarimdan uyalmayman, ammo... otang ham ayrim paytlarda umidsizlikka tushganligi haqida bilishingni istamayman.

Umidsizlik iblisning so'nggi va muhim quroli deb aytishadi. Bu quroli kibr, rashk nafrat kabi qurollari e'tiqodi o'ta mustahkamlarga ta'sir qilmaganda ishlatar ekan.

Balki, shunday hamdir, ammo vaqt-vaqti bilan umidsizlikka tushmagan odamning o'zi bo'lmasa kerak. Biroq, hayot qayg'usiz, yo'qotishlarsiz bitmasligi va ular o'tkinchiligini his qilganda umidsizlik ham chekinadi.

Mana shunday holatlarga tushgan paytim, ishxonada qolaman va pishiriqlar uchun xamir qoraman. Uyga qaytgan paytimda Mariya ulayotgan bo'ladi. Kiyimlarimni almashtirib, Marsni sayrga olib chiqaman, tong otishini kutaman va issiqqina kulchalarni yaqindagi bolalar uyiga eltib berish uchun novvoyxonaga qaytaman.

Bu ziyoratlarim bekorchi o'tgan kunlarim haqidagi afsuslarimni tarqatishga yordam beradi.

Yoshlik paytlarimda umidsizligimni aroqxo'rlik bilan o'chirishga, sershovqin ulfatchiliklarning tamaki tutini panasiga yashirishga urinardik. Ammo sira engillik his qilmasdim. Shunda tanholikni istab qolardim. Shu yordam berardi.

Seni yo'qotganimdan keyin umidsizlik tez-tez keladigan va uzoq qoladigan bo'ldi. Ammo, uning o'zi ham bu ayriliqqa dosh berish uchun tirishayotganligini sezib qolardim.

Mening umidsizligim nima haqida? Ular ko'p va turlicha. Ota-onamni tortib olgan urish alamimni keltiradi. Beg'ubor va beayb go'daklarning o'limi va ochlikka giriftonligi-chi? Bir lahzada katta bo'lib qolgan bolalar. O'zi uchun emas, uni kutayotganlar uchun jonini asrab jang qilgan kattalar....

Oila deb atalmish qo'rg'onning ne-ne imoratlari yondi. Ularga qo'shilib yonib ketgan kitoblarni aytmay qo'ya qolay. Kitob emas, adabiyot, tarix yondi.

Eh, o'z xatolaridan xulosa chiqara olmagan insoniyat...

O'z taftini boshqalar bilan baham ko'rishni bas qilgancha o'zlarini tanholikka band etgan odamlar haqida o'ylayman. Urishning asrlar davomida tiklanmas asoratlari haqida...

Mening umidsizligim seni quchog'imga ola bilmasligimdadir, qizim.

Bila turib o'z-o'zimni aldaganday, seni o'z xotiralarimda quchog'imga ola bilaman. Moddiyat dunyosi bir-birini sevadiganlar uchun to'siq bo'la olmaydi, deya o'zimni ovutaman. Oying sening suratingga tikilgancha yig'layotganini ko'rib qolganimda unga shularni aytib berib taskin beraman.

Ammo, xozir hech narsaga ishonmayman, bu og'riq va norozichilikni ko'kragimda olib yuribman. Sohil bo'ylab tez-tez qadamlab ketaman... Non yopaman...

Dostu, menga xamir qorish bilan bandlik ko'proq yoqadi. Uning issiq taftini, xushbo'y iforini, qobig'i qisirlab sinishini-yu mag'zidan bug' sizib chiqishini, bir so'z bilan aytganda, nonni his qilishni yaxshi ko'raman. Ularni bolalar mazza qilib eyishlari ko'z oldimga keladi. Xuddi sendek yuziga sepkil toshgan qizaloqlar. Bunday hayollar uyga qaytishim va yashashda davom etishimga kuch beradi.

Seni sog'ingandan sog'ingan,

Dadang

11

Tirik narsalar o'zgarib turishga mahkum...

Dostu,

tush mahali Amir bilan masjidda bo'ldik. Bugun uning ota-onasi tug'ilgan kun. Ular bir kunda, uch yil farqi bilan vafot etishgan. Ular Amirning vatanida, behizorlar bilan qurshalgan qishloqda dafn etilgan.

Mening do'stim ota-onasini, o'z vatanida qoldirgan barcha narsalarini sog'inadi. U yerda yetti yildan beri hukumat qo'shini va qurollangan muholifatchilar orasida ayovsiz uzrush bormoqda. Muholifatchilar o'z hukmronligiga olgan yerlarda qullikni joriy qilishgan. Naq yigirma birinchi asrda-ya!

"Urush tufayli yurtimga qayta olmayman, buning ustiga xotinim ham, bolalarim ham qarshi. Qishloqdagi qabristonni portlatib yuborishibdi, odamlar marhumlarni ziyorat qilishdan-da mahrum. Unchalar taqvoli bo'lmasam ham tez-tez masjidga borib turaman. O'sha yerda Ota-onamning ovozi boshqa joylardagidan ko'ra aniq-tiniq eshitaman..."

Yosh o'tgan sari odam o'limdan keyin nimalar bo'lishini o'ylay boshlaydi. Islomga ko'ra, har bir musulmonni Arshi-A'loda yoki do'zaxda yangi hayot kutadi. Bu esa uning qanchalar savobli yoki gunohkorligiga bog'liq. Amirdan qabrdan so'ngi hayotga ishonish-

ishonmasigini so'ragan bo'lib uni battar tushkun gaplardan chalg'itaman.

«Qaydam... Jannat ham, do'zax xam xuddi boshqa rag'batu jazolar kabi er yuzida bo'lsa kerak. Menimcha, u yoqda har kim bu erda nimalarga ishonishga qarab ajr oladi...»

Amir masjidga kirib chiqqunicha uning artofida aylanib yuraman. Ota-onalarini kutayotgan bolalar qor bo'ron o'ynashar, ularning shovqin-so'ronidan simlarda o'tirgan chumchiqlar bolalarning boshi uzra uchib yurishardi. Shahrimiz qanchalar ajoyib. Yil bo'yi qorga burkanganidan xuddi qor kabi oppoq sovuq va chiroyli.

Masjid ortidagi maydonda qabrtoshlar ko'zga tashlanadi. Ilgari masjid yonidagi mozar oliy martabalilarga munosib sanaladigan bu erga diniy rahnamolar dafn etishgan. Men bu qabrlarga termulgancha ayni damda va ayni joyda yashash mavjudlikning eng maqbul shakli deya o'ylardim.

«Biz hammamiz bu dunyoga mehmonmiz va bizning tasarrufimizdagi vaqt juda oz!»

Do'stim Amir - surati va siyrati juda xotirjam kishi. U mendan yigirma olti yosh kichik bo'lishiga qaramay tashqi dunyodagi xodisalarga juda xotirjamlik bilan, mo'minlarcha, qaxr-g'azabsiz, noo'rin savollarsiz munosabatda bo'ladi-ki menda hamma vaqt ham bunday bo'lavermaydi. U kuzatuvchi, ammo befarq emas.

Amirning kundalik hayoti bir xilda kechadi: u tonggi besh yarimda uyg'ondi, kardomonli qahva damlaydi, uydagilarga nonushta tayyorlaydi, novvoyxonaga o'tlanadi, tushlik payti gitara chaladi, kechqurin uyiga qaytadi, kechki ovqatni baquvat qiladi: birinchi ovqat zarg'aldoq yasmiqli sho'rva ichadi, ikkinchisiga issiqlik va quvvat beradigan taom, so'ng bolalariga kitob o'qib beradi va uxlashga yotadi. Keyingi kun yana bari boshdan boshlanadi

Bunday bir tarzdagi kun tartibi menga zerikarliroq tuyuladi. Amir esa baxtli. Izohsiz, qiyoslashlarsiz. U bunday hayot tarzi - o'z-o'zi bilan uyg'unlikka, Yaratganga muhabbatga birdan erishmagan albatta.

«Men uzoq yillar ota-onam istaklari etagida kun kechirdim. Ular mening novvoylikka bo'lgan qiziqishimga qarshi edilar. Menga esa non yopish juda qiziqarli tuyular, onamning anisli non yoki zog'ora undan pirog yopishlarini soatlab kuzatardim. Otamning bundan jahli chiqqancha meni kaltaklab qolar, uning ishini davom ettirishim uchun qushxonaga sudrab ketadi...»

Amirni qarindoshlarining ko'ziga uylantirib qo'yishadi. Ular bor-yo'g'i to'qqiz oy birga yashashgan, kelinchak bezgakka chalinib vafot etadi.

«Nima qilay, Ota-onamning istagiga qarshi bora olmadim. Baxting har doim ham ota-onangni quvontirish bilan boshlanavermas ekan...»

Ota-onasi o'limidan so'ng sevgan qiziga uylandi.

Urush tufayli qishlog'i, vatanini tashlab ketdi. Abadiy qish shahri Amirning o'z quchog'iga oldi, bu yerda u novvoyxona ochdi, egizak qizlarini voyaga yetkazayapti.

Dostu, o'zgarishlar, hatto eng tavakkallari ham hayot uchun eng soz ziravorlardir. Ularsiz unchalar o'xshamaydi. Tirik jon o'zgarmasdan qolmaydi. Tirik narsalar o'zgarib turishga mahkum. Sen esa...

Sog'inch bilan,

Dadang.

12

Oramizdagi joziba o'z hayoti bilan yashaydi...

Dostu,

bu erda iliq kunlar xam bo'lib turadi. Xuddi jadvaldagidek, yigirmanchi martda bu erda quyosh o'zini ilk bor namoyon qiladi va

shuning sharafiga bayram uyushtiriladi. Mataxari - saryog' ta'mli mayiz qo'shilgan tillarang bulochkalar uning eng muhim shirinligi. Boshida bu biror raqqosaning nomi bilan atalgan bo'lsa kerak, deb o'yladim. Ammo raqqosaning bu shodyoniga xech qanday aloqasi yo'q. Mataxari malay tilida «quyosh» degani ekan.

Shu erkak bekalar uni ilohiy taom deb atashadi - u yangi qo'yilgan tandirga birinchi bo'lib yopilsa, nonlari shirin va yumshoq chiqadi. Amir ikkimiz xam ilohiyli uchun, nima bo'lganida xam buni qanday qabul qilish xar kimning o'z ixtiyorida.

Qizim, o'zing xam bir unab ko'rishing uchun qisqacha retseptini yozib borama. O'zing nonvoyxonamizga kelsang xam mayli.

Sariyog' va jigarrang shakarni ko'pirtirasan, bir stakan sarqaymoq sut, keyin uz yuz gramm unni oz-ozdan bir chimdim tuz, qavartqi qo'shasan. Yaxshilab aralashtirganingdan keyin mayiz, sut va yana shuncha un qo'shasan.

Tayyor xamirni stolga enlikkina yoyganingdan keyin shakadon bilan dumaloqlarni kesib olasan.

Pishiriq patnisiga nonvoy qog'ozi to'shab, unga bolochkalarni terib chiq, sirtiga ko'pirtirilgan tuxum sarig'i surt, keyin 190 darajali duxovkada yarim soatga qo'yib qo'y.

Matari, ayniqsa, nonushta payti senga juda yoqadi.

Sening qanday xamir qorayotganing, chimchilog'ing bilan bosib ko'rayotganing, duxovkadan patnisni olayotganing, ortidan bahor mo'ralab turgan derazasin ochishing va issiq pishirig'ing isi o'rrik gullari iforiga aralashib ketishini tasavvur qilaman...

Seni sog'indim qizim.

Dostu, sen bizni tashlab ketganingdan keyin oying ikkimiz ajralishdik. Ha eshitganing rost, ajralishdik, ayrildik emas. Shunday ittifoqkor borki, ular ayrila olishmaydi. Ularning ikkisini qanchadan-qancha quvonchlar va qayg'ular, topishlar va yo'qotishlar bog'lab

turadiki, ular orasidagi tortishish - joziba o'z hayoti bilan yashaydi va kesib bo'lmaydigan kindikdek ularni bog'lab turadi.

Bizlarning oramizdagi ittifoq, garchi boshida buni anglamagan bo'lsak-da, yana shundaylardan edi.

Bizlarda ayriliq azobi og'irlashib borib, shu qadar ulkan dardga aylandiki, boshqa tuyg'ularga o'rin qoldirmadi. Yonma-yon bo'lishimiz esa bu og'riqni yanada kuchaytirardi, zero har birimiz o'zimizni aybdor hisoblardik.

Bir kuni tongda Mariyani uydan topolmadim. U sening surating ostiga qog'ozcha qo'yib ketibdi.

"Hozir ketishdan bo'lak hech narsa qo'limdan kelmayapti. Menga vaqt kerak... Tushunishga harakat qil va xavotir olma. Mariya."

Avvaliga o'zimni yo'qotib qo'ydim, keyin jahlim chiqdi, undan keyin o'z qayg'ularimga berilib ketgancha oyingga kerakli bo'lgan lahzalarni boy berganim uchun o'zimdan nafratlandim.

U oradan bir yarim oy o'tganidan so'ng qaytib keldi. Bu orada menda va bizda ko'p narsalar o'zgarishga yuz tutgandi. Hozir ikkimiz uchun o'z-o'zimizni ayblamagan holda og'riqni qabul qila olishimizga yordam bergan tanaffusni e'lon qilishga kuch topa olganligi uchun Mariyadan minatdorman.

Og'riq o'tib ketmadi, unga bo'lgan munosabatimiz o'zgardi. Endi u qalbimizda. Mariya ikkimizni hech qachon tark etmagan tuyg'u - sevishtir istagiga joy ajraygancha o'zini chetroqqa oldi.

Sen ham bizni tushunishga harakat qil...

Dadang

Dostu,

biz tark etgan mamlakatimiz haqida xabarlarni o'qimaymiz. U yerda yuz berayotgan voqealar juda achinarli. Bizlarning sobiq vatandoshlarimiz faqat bir narsa - hukmron hukumatdan norozilik, demokratiya, erkin saylovlar haqida gapirishmoqda.

Ular haqiqatdan ham ozodlikni istashayaptimi? Axir, ozodlik - ma'suliyat degani, u yerda esa kamdan-kamlargina ma'suliyatga tayyor.

"Ozodlik deganlari asta-sekin, poyma-poy, yovvoyi g'alayon va qon to'kishlarsiz rivojlanayotgan mamlakatlardagina yuzaga kelishi mumkin!"

Onang Mariya esa anchadan beri demokratiya va adolat hukmron bo'lgan ideal jamiyat mavjudligiga ishonmay qo'ygan.

"Odamlarning taqdiri nega bunday sinov va mashaqqatlarga duchor bo'layotgani yuqoridagilarga ma'lum, degan bolalarga xos istak bilan umid qilishga to'g'ri keladi. Hayot qisqa. Yoqtirgan ishing bilan mashg'ul bo'lish, ezgu ish-yumushlarni amalga oshirish va faqatgina hisobot-xabar tarzida ko'rsatilayotgan yangiliklarni kamroq ko'rish kerak, bulardan uyqung ham qochib ketadi... "

Aytganday yaxshi xabarlar xam bor. Jan o'zining qaylig'i bilan tanishtirdi. Uning ismi - Der'ya, u ham psixolog. Juda ko'rkam xonim. Ular Sankt-Peterburgdagi autizm xastaligiga chalingan bolalarni inklyuziv o'qitishga bag'ishlangan tartibda sevishib qolishgan.

Der'yaning autizmga chalingan Leon ismli o'g'li bor. Jan ikkisini bu yerga olib keldi. Kecha hammamiz yakshanba sayriga chiqdik. Leon Mars bilan do'stlashib ketganligini ko'rganingda edi!

Ular yaqinlashayotgan to'lqinlarga chap bergancha oldinda yugurib borishardi. Leon to'xtab qolar, to'zgigan chaykalarga qaragancha xuddi o'zi xam uchib ketmoqchidek qo'llarini qoqardi. Mars old oyoqlarini ko'tarib, tumshug'ini osmonga tutgancha orqa oyoqlarida sakrardi.

Bolakay uning quloqlari ortini qashlab qo'yish uchun yaqinlashganida, uni qo'rqitvormaslik uchun itimiz o'zini tek tutardi. Mars bolalarni juda yaxshi his qiladi. Odatda Mars begonalarni o'ziga yaqinlashtirmaydi, silashga izn bermaydi.

Men ularni kuzatarkanman, boshimda Sinatraning «Its impossible» nomli taronasi yangrardi.

«Ummon sohiliga intilmasligi mumkinmi? Yo'q, mumkin emas!»

Odamlar er yuziga bir maqsad - sevishni o'rganish, mehr his etish uchun kelishadi.

Itlar buni tug'ilganlaridanoq bilishadi, shuning uchun kamroq yashaydi.

Autizmga chalingan bolalar kutilmagan ishlarga qo'l urishadi, shuning uchun ham ular o'zini qanday tutishlarini oldindan bila olmaygan. Bugun u it bilan bemalol o'ynashmoqda, ertaga esa unga yaqinlashishdan qo'rqadi, zero bu uchrashuv ummon sohilidamas, deylik, torgina zina yo'lagida sodir bo'lgan qaytida. Der'yaning o'g'li haqidagi gaplari quloqlarim ostida jaranglaydi.

«Avvallari Leon bilan odamlar gavjum joylarda asablarin tarang xolda bo'zardi. Bunday paytlarda uning eng oddiy hodisalar masalan avtobus eshigi yopilayotganida chiqqan tovushdan qo'rquvga tushishidan xavotirlanardi. Endi esa odamlar bunga qanday qarashlari menga baribir. Leon qo'rqan yoki o'zini yo'qotib qo'ygan paytda uni mahkam quchoqlab olgach nimalar sodir bo'layotganliginisekin tushuntiraman. U gaplarimga tushunib tinchlanadi.....»

Jan dunyoning ko'plab mamlakatlarida autizmi xaligacha avvalgidek psixolog preparatlar bilan davolashga urinayotganidan havotirda. Bunga yo'l qo'yib bo'lmasligu haqida qayg'urib gapirdi. Ayrim davlatlarda oddiy bolalar autizmga chalinganlar bilan birga oqiydigan maktablar ochilayotgan emish.

Bunday bolalar odatdagi bolalar kabi dunyoni idrok etishni, uning bir qismiga aylanishni o'zlariga xos tarzda uddalaydilar. Jamiyat ham ularni hech bir hadiksiz qabul qilishni o'rgana boshlaydi. Umuman olganda, ta'sirchanligi yuqori bo'lgan xastalardan qo'rqish kerakmas, sog'lom bo'la turib o'zini eplolmay yuradigan ayrim kimsalardan hadiksirash o'rinli.

Har bur tong - yangiliklarni ko'rish, o'rganish imkoniyati, g'aroyib sarguzashtning boshlanishi va davom etishidir. Har bir yangi kunni mashaqqatlarga qaramay unitilmas qilish mumkin. Bundan odamning yuragi hapqirib ketadi.

YURAK TOVUSHIMNING JARANGIDA SENING ISMING BOR...

Dadang

14

Nega odamlar orzumandligidan uyalishadi?

Dostu,

beshinch i kundirki yozmayapman, kechir. Uyga juda kech qaytayapman, ozgina tamaddi-yu, Mariya bilan bir-ikki og'iz gaplashishgagina holim yetadi, xolos, keyin esa toshdek qotaman. Novvoyxonada ish boshdan oshib yotibdi, kengayapmiz. Endi bizda tandir ham bor, elektr bilan ishlaydigan temir tandir emas, haqiqiy loy tandir, unda ham nonlar, patirlar yopamiz.

Xuddi tepasi kesib olingan gumbazga o'xshaydigan loy tandirni sariq tuproqdan yasashadi. Bunday tandirni ozgina o'tin bilan ham yaxshilab qizitsa bo'ladi, issiqni yaxshi ushlaydi.

Amir tandirni oqartirib, silliq yuzasiga bir-ikki hovuch suv sepadi va qo'liga rapida taqqancha yapaloq aylana nonlarni tandirga yopishtirib chiqadi. Tasavvur qilasanmi, bu xom nonlar qip-qizil cho'g'lar ustiga uzilib tushmasdan, ikki tomoni ham qizarib pishadi. O'n daqiqalardan so'ng qizargan nonlarni maxsus nonuzgich bilan uzib chiqadi.

Amirga tandir yasashni yaqin-atrofida to'qqiz xil iqlim qo'shnichilik qiladigan mamlakatda yashaydigan tog'asi o'rgatgan. U yerlarda o'tin degani taxchil ekan.

"... Kuzda otam meni paxta teeish uchun tog'amnikiga yuborardi. U yerdagi odamlar tushlikka taklif qilishda "yuringlar, non yeymiz" deyishadi. Bu joylarda "non" va "yeyish" so'zini bir-biridan ko'pincha ajratolmaysan. Ochiqko'ngil, mehribon, kezi kelganda juda soddadil, bir so'z bilan aytganda, g'aroyib odamlar, ajoyib xalq... "

Nega odamlar o'zining orzumabdligidan, muloyimligi va boshqa fazilatlaridan uyalishadi? Bunday tuyg'ularini soddadillik alomatidan deb bilib, qo'pollik va qo'rslik, ayyorlik va tilyog'lamalikni - siyosat deya atashadi.

Qoidaga ko'ra issiqqina tandir nonini qo'zi terisidan tayyorlangan meshda to'qson kun saqlangan qo'y suti pishlog'iga qo'shib yeyishadi. Buning uchun terini jundan tozalashadi, oshlashadi va teskariga ag'darishadi.

Kecha Amirga shunaqa pishloqdan keltirib berishdi. Novvoyxonada men ham bor edim. Qandaydir o'ziga xos hidini aytmasa, juda mazali. Amir xirgoyi qilguncha pishloqni kesishga tushdi.

"Uyida noni borning ko'nglida g'am na qilsin!"

Men tandirda non yopishni endi o'rganayapman, xamirini esa deyarli o'rganib oldim. Bu xamir yumshoqroq bo'lishi kerak. Buning uchun un, suv, quruq xamirturush, tuz, bir qoshiqcha shakar va o'simlik yog'i ishlatiladi. Amir zuvalalarni shaklga keltirib, kaftining qirrasi bilan ularning yon tomoniga izlar solgancha yapaloqlaydi, nonparga yuzini urib, sirtiga tuxum sarig'i suradi, keyin nonparga teskari urib, sirtiga suv sepalab-ishqab tandirga yopishtiradi. Tandirnonning sirti qisirlagan bo'lib, rangi tillarang tus oladi. Yopishib qolmaydi ham.

Dostu, bugun qo'qisdan buvim bilan olmal somsalar yopganimizni eslab qoldim. Pechdan chiqayotgan iliq ifor, stoldagi un uyumi. Un changidan burnim qichishaverib rosa aksirgandim. O'sha kundagi

boshqa tafsilotlarni ham eslashga rosa harakat qildim, bolmadi. Endi men uchun muhim bo'lgan ko'plab tafsilotlar xotiramdan o'chib bormoqda.

Xotiralarimda men bir paytda o'zi qo'limga kelib tushgan baliqli irmoqni eslayman. Nimagadir u qorni bilan tepaga to'ntarilib qolgandi. Keyin ularning ko'pligini bilib qoldim. Qanday zo'r! Qarmoqqa soatlab qarab o'tirish ham kerakmas. Apil-tapil ularni tergilab olgancha uyga chopdim. Oyim esa o'limtik baliqni axlat chelagiga tashladi. Men ko'zlarim to'la yosh bilan axlat chelagidagi kumushdek baliqlarga termulardim.

Ba'zan o'tmish hayotingni chidab bo'lmas darajada ajoyib qilib tashlaydi. Shu darajada ajoyibki, bunga ayrimlar toqat qilolmaydilar ham.

Sog'inch azobiga chidolmayotgan...

Dadang.

15

Bir kuni shunday odamni uchratasanki, uning ko'zlaridan senga taqdir qarab turadi...

Dostu,

bugun Darya Leon bilan uyimizga kelishdi. Biz juda xursand bo'ldik: bizning oq uyimizda bola kulgusi yetishmay turgandi. Jan dam olish kunlarida ham mijozlari bilan suhbat o'tkazgani uchun ona-bola ko'pincha bizni yo'qlashadi.

Leon Marsning hamrohligida O'zg'irning kayutasini ko'zdan kechirib chiqayapti. Oying supra bilan ovora, biz Darya bilan unga yordamlashamiz. Juvon Abadiy qish shahriga ko'nikayapti: avvaliga unga muzqoyadek ko'ringan bu joy endi o'zining iliq tomonlarini namoyon qilmoqda.

"Kelganimning birinchi kunida bu shahar dunyodan yuz o'giranlarga atalgan bo'lsa kerak, deb o'ylagandim. Keyin yaxshilab qarasam, unda yangi kelganlar uchun ham, ketadiganlar uchun ham joy topilarkan..."

Sirtidan nozik niholdek ko'ringan Daryada kuch-quvvat qaynab-toshadi. Suhbatlashganda bir mavzudan boshqasiga osongina o'tib ketadi. Dam inqilobgacha bo'lgan Peterburgning ajoyib an'alaridan biri bo'lmish konservatoriyaning medal bilan yakunlagan talabaga royal sovg'a qilishlarini, dam dunyoda ranglarni umuman ajrata olmaydigan axromatopsiyaga chalingan odamlar soni oshib borayotganligi, dam boshqa odamning tajovuzkorligi aslida mehrga bo'lgan muhtojligi oqibati ekanligini aytib beradi.

"Boshingizni qotirib tashladim. Bu dunyoning muammosi qachon ado bo'libdiki, endi ado bo'lsa. Yana bir bor uzr so'rayman..."

Darya uning gaplariga hayrat bilan boqqan ko'zlarimizga tikilib qiqir-qiqir kuladi, xuddi o'sha dunyo muammolarini Leonga bo'lgan muhabbati bilan mag'lub qilganday. Yana odobsizlik qilmadimikan deya kafti bilan lablariga urib qo'yadi va sabzini mayda qirg'ichdan o'tkaza boshlaydi. Biz sabzili pecheniye tayyorlayapmiz. Men yuz gramm yumshatilgan moyga shuncha shakar qo'shib ko'pirtiraman. Tuxum, vanil qo'shib aralashtiraman.

Moyli aralashmaga Mariya bir yarim stakan unni elakdan o'tqazib qo'shgandan so'ng ustiga tuz, qavartqi va koritsa qo'shadi. Keyin uni yaxshilab aralashtirib, qirg'ichlangan sabzini qo'shin qoradi - yumshoq va zarg'aldoqrang xamir tayyor. Oying qo'llarini xo'llagancha pecheniyelarni yasab pishiriq patnisiga terib chiqadi va yigirma daqiqaga duxovkaga joylashtiradi.

Pecheniye ni sovutishga qo'ygach, oying Leonni o'ynata boshladi, biz Darya bilan Marsni aylantirib kelish uchun ummon sohiliga, ochiq havoga chiqdil. Garchi tungi bo'rondan so'ng hammamiz tabiat dam olsa kerak, deb umid qilgan bo'lsak-da, tashqarida qor bo'ralayotgandi. Mayli, buralay qolsin, shamol bo'lmasa bo'lgani. Izg'irin badaningni

ochiq joyiga mitti-mitti ignalarini sanchganda oppoq tevarak atrofiga to'ymayotgan ko'zlaringni yumib olasan kishi. Qor yog'ishi issiq o'lkalarda oftob chiqishiday gap...

Darya trassadan oq uy tomonga eltadigan yo'lakka qaraydi - Janni kutayapti...

U Janning na ismini, na qiyofasini bilgan holda kutgan, hatto uni qachon va qayerda uchratishi mumkinligini bilmagan. Lekin ichki tuyg'ulari sadosi uni taqdirning muhim uchrashuviga tayyorlagan. To'g'ri, tanlovda ba'zan adashgan bo'lishi mumkin, lek bunga qaramay uzoq kutilgan uchrashuvlarining yaqinlashayotganiga ishongan. Leonning otasi bolaning tashxisini bilganidan so'ng ularni tashlab ketgan ekan.

"...Men Janni umr yo'ldoshimni yo'qotishdan paydo bo'lgan qo'rquvlarimni bir qadar yenganimdan so'ng, ruhimdagi siniqlik asta-sekin butunlik kasb etganidan keyin uchratdim. Ko'plab juvonlar kabi yolg'izlik qo'rquvini sevgi bilan adashtirgandim. Bilasizmi, bir paytlar hindistonlik dugonam menga: "Bir kuni shunday odamni uchratasanki, uning ko'zlaridan senga taqdir qarab turadi", degan edi. Shunday ham bo'ldi. Bu ideallashtirishmas, aslo. Jan ham ko'pchilik qatori qusurlardan xoli emas. Hissiyotga bo'ysungan aqlning emas, aqlga bo'ysungan hissiyotlarning tanlovi - eng to'g'risi ekan."

Qizim, haqiqiy muhabbatda shubhaga o'rin yo'q. U o'z istagiga bir kunmas bir kun yetaklab boradi.

Taqdir bizni o'zimiz o'ylab topolmaydigan so'qmoqlar orqali cho'qqiga yetaklaydi.

Seni sevish va kutish ham mening taqdirim chekiga tushganidan shukr qilishdan charchamayman.

Dadang

Dostu

yer yuzida ideal dunyoni izlama, u yo'q narsa. Go'zallik tasqaralik bilan, samimiylik - riyokorlik bilan, tan olish - unutish bilan qo'shnichilikda yashaydi. Bizlar o'zgartira olmaydigan narsalar mavjud, ularni qabul qil va yo'lingda davom et. Qabul qilish taslim bo'lish degani emas, garchi birinchi qarashda mag'lubiyatday tuyulsa ham. Qo'lingdan kelganicha yordam ber - har bir yangi kun in'omi buning uchun imkoniyatlar ochib beradi.

Mukammallikni izlash yoshlikka xos narsa. O'z-o'zing bilan murosaga kelishni topa olish va ushbu muvozanatni saqlay bilisg esa eng muhumi.

Botiniy olaming nafratli sevgi - muhabbat bilan, qo'rquvlarni - orzu-umidlar bilan, o'lim istagini - yashashga bo'lgan ilohiy chanqoq bilan yenga oladigan ishonchli maskandir. U yerda yo'qotgan odaming bilan qaytmas bo'lib ketgan muhabbatingni eslash va u bilan xayolan yashashing mumkin.

Ammo ichki dunyo deb atalmish qal'aga biqinib olganimiz bilan uning tashqarisida yuz berayotgan xodisalarga aloqadorligimiz uzulib qolmaydi. Deraza ortidagi bo'ron uydagi ob-havoga ta'sir qiladi, eshitgan so'zimiz dilimizga ozor yetkazadi, kiftimizga tushgan zarba - o'ldirishi mumkun. Shuning uchun to'lovini juda o'ylab amalga oshrish lozim.

Qizim, men o'zimning yoshligimni va dunyoni o'zgartirishga bo'lgan chidab bo'lmas istagimni eslayman. Men kim edim? Yuksak talablarga asir idealistmi? Adolatpeshalikka davogar taqvodormi? Men odamlarning hammaga o'hshamaganlikdan uyalmasliklarini istardim. Jamiyat qanday to'laqonlikka erishishini ravshan tasavvur qilardim.

Fikirlarimni yetkazish, ko'rsatishga bo'lgan yuzlab urinishlarimdan so'ng tamoman kuchdan qoldim. O'zimni "men ojizman", "mening g'oyalarim bir tiyinga qimmat" kabi hulosalarim

bilan o'zimni yeb bitirdim. O'sha paytlarda men bilan uchrashib yuradigan ayolning gaplari quloqlarim ostida jaranglaydi.

"Sening ichki kechinmalarining tirikligingdan dalolatdir. Tirik odamni sevish - bu juda ajoyib tuhfa! "

Dunyo qanday bo'lsa, uni shu holida qabul qildim. Yordam berish yoki chetlab o'tish - mening har kungi tanlovim. Agar yordam bermoqchi bo'lsang ikkilanmay qil va tevarak sening vositangda kimningdir ibodatiga javob berayotgani uchun hursand bo'l.

Men ko'plab qaytarib qolgan idealistlarni ko'rdim. Achinarli manzara.... Dostu, o'z haqligingga ishonib qolish o'zgalarga o'z samimiyligingni tiqishtirishday daxshatli. Idealizm ko'pincha fojeaga aylanib ketadi. Bu dunyoning o'zi mukammal emasligini anglab yetganingda mukammallik va to'kislik tomon siljiyotganingni bilib qolasan.

Bugun senga o'n oltinchi xatni yozib tugatayotib, o'z-o'zimdand so'radim: mening bu satrlarim o'z yaqinlarimga hayot saboqlarimni yetkazishga bo'lgan xudbinona istagim samarasi emasmi? Menimcha, bunday emas.

Seni sog'inganini aytib charvhamaydigan,

Dadang.

17

Hech qayoqqa shoshilma, yo'qsa mo'jizani o'tkazib yuborasan...

Dostu,

to'p-to'p bulutlarni tomosha qilmaganingga ko'p bo'ldimi? Mana bir necha kunki, ko'zlarimni osmonga qarata olganim yo'q ---- ishlar shunaqa ko'payib ketdiki, o'pkam naq shishib ketdi. Ummon va bulutlarni qanchalar sevishimni bilasan-ku. Hozir ularning ikkisi ham bor manda. Bu mening baxtim....

Bugun novvoyxonaga kechroq borishga ahd qildim. Mardbi ergashtirgancha sohilga bordim. Sukunat, kimsasizlik, birorta baliqchilar qayig'i ko'rinmaydi, g'alati....

Osmon - buyuk muvozanatlar sohibi. Yerdagi tartibsizliklar orasida osmonga qarashning o'zi hayot hech kimga hech qanday kafolat bermasligi, u hech kimdan qarzdormasligi, ammo doimo yo'lida davom etajak karvonga ekanligini esga soladi. Boshingdagi yugur-yugurlar shovqinni bir yoqli qilganingda bu haqiqat ravshanlashadi.

Men osmonning oppoq kezuvchilari bo'lmish bulutlarga oshiq bo'lib qolganimda olti yoshlarda edim: maktabga qaytayotib, quyosh nuri bir uyum bulut xirmoni orasidan yorib o'tayotganini ko'rib qoldim. Bulut xirmoni menga g'oz pati to'ldirilgab momiq yostiqni eslatadi.

"Bulutlarning ustida yotsa ham bo'larkan..."

Keyin bulutlar qoraya-qoraya xo'mraygancha sur bulutlarga aylandi. Xuddi ularga kimdir siyoh quyib yuborgandek. Men sur bulutlarga achindim ---- odamlar ularni yoqtirishmaydi. Men quyosh tezda uyg'onib, sur bulurlarni haydab soladi, degan sinfdoshim bilan yoqalashib ketdim hatto.

Bulatlar odamlarga doimo rivojlanib borish kerakligini eslatgancha harakatda bo'ladilar.Ular hayotga yumor bilan munosabatda bo'lish kerakligini tavsiya qilgancha turli shakllarga kiradi. Tabiat tabassum qilish salohiyatini faqat odamgagina tuhfa qilgan. Nimaga shunday? Balki haroratga eng ko'p muhtoj bo'lganligimiz uchundir?

Bulutlar ayni damdan lazzat olishni o'rgatadi. "Alisa Mo'jizalar mamlakatida"gi mashhur jumla esingdami: "Agar siz doim shoshilib yursangiz, mo'jizalarni o'tkazib yuborishingiz mumkin".

Qizim, doim yugurib-yelib yuradiganlar ko'pligiga qaraganda yashay biladiganlar juda ozchilikni tashkil qiladi. Biz to'xtashdan, o'z-o'zimizdan: "Qayoqqa ketyapman? Kerakli ish bilan bandmanmi?" deya so'rashdan qo'rqamiz. Bizga podaga hos harakat hadisini singdirishgan - --- qanchalar ko'p va band bo'lsak, shunchalar oshig'imiz olchi bo'ladi.

Biroq istagimiz ortida. Noaniq manzilga yo'l olgan poda kabi poyga bilan ovoramiz. Bu poyga bizni baxtli qilmaydi, aksincha toqatsizlantiradi va xoritib-charchatib ezib tashlaydi.

Bizga hamisha nimadir kam. Ko'p narsani, hatto orzumiz ushalgan lahzani ham sezmay qolamiz. Bulutlar esa bizni zimdan kuzatib turadi. Ohista suzishni o'rganinglar, deya o'zini shamol izmiga tashlagan kuyi biz shoshqaloqlarni kuzatib boradi.

Bulutlar orasida aksingni ko'ruvchi....

Dadang

18

Sen tufayli hayotim yangicha fayz kasb etdi.

Dostu

men yana italyanchani o'rganyapman. Esingdami, Toskaniyaga safar qilganimizdan keyin hammamiz uni o'rganishga qiziqib ketgandik? Boshlanishi yomon bo'lmadi. Keyin seni shifoxonaga yotqizishdi. Sen mashg'ulotni istamading va biz endi palatangda shug'ullanardik. Davolovchi shifokorning jahli chiqdi.

"Hozir til o'rganish mavridimi?!"

Uni haydab solishimizga to'g'ri kelgandi. Keyinroq bizni tushungan bo'lsa kerak...

Darslikdagi changni qoqqancha matnni hijjalab o'qiyman. Fererlik yozuvchi Janfranko Rossining hikoyalari. Qanday ajoyib uslub ---- o'quvchiga nima haqda yozilganimas, o'qish jarayoni to'xtovsiz, sahifama-sahifa davom etavergani muhimdek yoza bilish. Rossining so'zlarida orom beruvchi sehrarlik pinhon. O'zga olam va o'zga olamning bizga ayon bo'lmagan o'zga o'lchamiga tushib qolganday bo'lasan.

"...Qaydadir shunday osuda joy borki, tirik joy deb atalmish daraxtlar, maysalar, jonivorlar sokinlikka cho'kkani kuyi shovqinsiz

chayqaladi. U yerdan qochib ketish xayolinggayam kelmaydi. U yerda asta-sekin deganlariyam juda sokin. Befoyda mungga almashinadigan besarhad quvonch bilan favqulotda, yovvoyi, ozod holda o'z-o'zing bilan yashaysan.... "

Menimcha, iqtidorli insonlar hayoti, garchi ularning yorqin salohiyati aziyatlarga qorishgan bo'lsa-da, butunlay ayanchli emas.

Italyanchani o'rganish uchun Mariyaning deyarli vaqti yo'q. Qo'li bo'shagan vaqtlarini Leon bilan o'tkazadi. Ular ko'pincha sayrga chiqishadi, olis o'lkalar haqidagi qo'shiqlarni o'rganishadi, ba'zan esa shamolni tinglaganacha uzoq payt sukut saqlashadi.

Darya endi Jan bilan birga ishlayotganligi uchun Leonni biznikiga tashlab ketyapti. Leon tufayli hayotimizga o'zgacha fayz kirdi.

"Dostuni yo'qotganimdan keyin o'zimni omon saqlash uchun botinimdagi qandaydir manbaaning ko'zini berkitdim. Yillar osha u menga yetishmay keldi. Leon esa unga qaytishimga yordam berdi."

Darya o'g'lini cho'miltirayotganidan foydalangan Mariya tovuq sho'rva qaynatish bilan band.

"Uch yillar oldin Leon ko'zingga qaramas, chaqirsalar javob qaytarmas, unga murojaat qilganlarga javoban quloqlarini berkitib olar yoki berilgan savolni aynan takrorlardi. Bir qarashda hech narsani tushunmayotgan bola bir vaqtning o'zida hamma narsani tushunayotganday ham edi."

Darya tovuq sho'rva qaynatib ona-bolani kuzatib turgan Mariyaga o'z dardu hasratlarini bayon qilardi.

"Ba'zan uning yonida bormanmi-yo'qmanmi Leonga farqsizdek tuyuladi. Bundan xo'p azoblanardim. Ammo taslim bo'lmadim, o'g'limning sog'ligi bilan jiddiy shug'ullanishda davom etdim. Hamkasblarim ---- psixologalar, defektologlar yordam berishdi. Ularga rahmat! "

Autizmga qarshi xapdorilar yo'q. Psixiatr shifokorlar odatda bolalarni sustlashtiriladigan preparatlar bilan "davolashga" urunishadi. Dori-darmon bilan olib boriladigan muolajalar psixologalar ishlab chiqqan amaliyotlar bilan birga olib borilmasa, barchasi bekor.

Mariya ayni "Sim-sim ko'chasi" namoyish qilinadigan paytda televizorni qo'ydi. Leon undagi sevimli qahramoni, ko'zlari chaqchaygan moviy paxmoq Korjik o'zining mashhur "Pecheniye!" xitobini aytganida xoxolagancha kuladi.

Qizim, nega kattalar bola bo'lishni bas qilishadi? Nega faqat qarigan paytdagina chinakam baxt nimaligini eslab qolamiz? Nega faqat keksalikda bolalikning beg'uborligini qo'msaymiz. Eplolmasak-da qo'msaymiz....

Dadang

19

Abadiy, o'zgarmas baxt - azobmi?

Dostu

mening botinimda muvozanat va turg'un uyg'unlik yo'q. Umuman bu narsa boshqa biror kimsada bormikan, deb o'ylab qolaman. Muvozanat va uyg'unlik bo'lmasa-da sevgi va minnatdorlik bor. Hayot deb atalmish chirog'im qisqa tutashuvlar sababli tez-tez elektr tarmog'idan uzib qo'yilayotgandek tuyulmoqda. Garchi yetmish yoshga borib bu ajoyib va bir paytning o'zida muthish dunyoni yangiliklar ila qabul qilish mushkul. Hissiyotlar allaqachon barqarorlashgan bo'lishi kerakdek.

Hech narsaga ishonmay qo'ygan kunlarimda yillar davomida orttirgan tajribalarim unutiladi. Yosh boladek tanlov oldida ojiz qolaman.

Jan bilan O'zgirning bortida o'tiribmiz. Qor erigan, kun iligan bo'lsa-da, shamolning zabti telpaklarimizni yechishga monelik qiladi. Do'stim horg'in holda sigaret chekadi.

"Jan, sening ham kuning g'alati o'tyaptimi? Bir ko'tarilib, bir pasaymoqdami? "

Jan bir daqiqa sukut saqlagancha sigaretni qor uyumiga tiqib o'chiradi.

"Shu kunning o'zi hayotdir... "

Janning mijozlari ko'paygan hozir. Psixolog kishilarning dardu hissiyotlarini o'zining qalbidan o'tqaza olmasa, uning taniga ham, ruhiga ham shifo berolmaydi. Buncha yukni ko'tarib yurish uni juda toliqtirgan. Boshqalarga sezdirmaslikka harakat qilsalarda hasta bolakayni tarbiyalash bu hamkasb juftliklar uchun osonmas.

"Mijizlarimning ongu shuurida qanday hayollar borligini anglashga harakat qilyapman, ishimning bosh mazmuni ham shundan. Ammo bugun birdan buyuk noaniqlik qarshisida barcha aytganlarimizning kuli ko'kka sovrildi. Aqlimiz yetmaydigan sinoatlar hamma vaqt bo'ladi. Balki bu yaxshilikkdir. Hech bo'lmasa ikki kun dam olishim kerak. Dar'ya bilan mashinada ummonning narigi sohiliga borib kelmoqchimiz. Leonni sizlarnikida qoldirsak maylimi? U olis yo'lni ko'tara olmaydi..."

Biz oying bilan bundan xursandman bo'ldik. Mayli, ular dam olishsin, bu ularga foyfali.

Ba'zan nimaki bo'lishi kerak bo'lsa, o'z-o'zidan bo'laveradi, degan ishonch bilan barcha ishlarni o'z holiga tashlab qo'yadigan mas'uliyatsiz odamning rolini o'ynash foydadan xoli emas.

Qizim, bilasanmi, nima haqda o'ylayapman? Nuqsonlarning orasidan ham baxtga qarashni o'rgangan holda unga ega bo'lish mumkin.

Mavridi kelganda mukammallikni egallasdan voz kechish ushalmas orzular ---- saroblardan xalos qiladi. O'z nomukammalligini to'ldiradigan odamni umr bo'yi izlaydigan odamlar juda ko'p. Darvoqe, aynan mana shunday odamlarni sevib qolishadi!

To'g'ri, kimdir izlash yo'lida vaqtinchalikka ovunchoq topadi ham. Lekin biror xatoga yo'l qo'ydimi, bas, mukammallik izlovchining nigohida ilinjlari bir zumda shohsupadan qulaydi, xafsalasi ham pir bo'ladi.

Bizning o'zimiz mukammallikdan yiroqmiz va boshqalardan ham benuqsonlikni kutmasligimiz shart.

Harbiy asirlarni otishganidan so'ng insoniyatga bo'lgan ishonchini yo'qotgan va daxshatli "nima uchun" degan savol tinchlik bermagan P'er Bezuxovni eslayman. Xalqdan chiqqan odamni uchratganidan so'ng u ruhdan qayta tug'iladi.

"Demak yashash kerak, demak sevish va ishonish kerak! "

Dostu, bolalikda hayotdan shunchaki lazzatlana bilsak, voyaga yetgandan so'ng baxtni kamalakdek rang-barang, afsonaviy chizgilar bilan bejab-chirmab tashlaymizki, uning asl qiyofasini hayotda tanimay ham qolamiz.

Abadiy va o'zgarmas baxtning o'zi azob emasmi?...

Seni sog'inib,

Dadang

20

Boshqalarning baxti haqida qayg'urishda ham baxt bor...

Dostu,

bugun Abadiy qish shahrida qor uyum-uyum bo'lib yotganiga qaramay ilqlik bor. Amir bunday ob-havoni issiq yurtlardan tashrif buyurgan janub shamolining sharofatidan deydi. Men novvoyxonaga yo'lning quyoshli tarafidan borayotib vaqt-vaqti bilan to'xtayman. Tanimga ilqlik kiradi. Ko'z o'ngimda ko'm-ko'k adirlar, qizg'aldoqlar dalalar paydo bo'ladi. Dalaga tutash yo'l biqinidagi qahvaxonada kimlardir issiqqina qahva ichish bilan mashg'ul, yana kimlardir o'tgan yili kuzda tayyorlangan vinoning oxirgi ochilganlaridan ta'tib

ko'tmoqda. Barchasining liboslari yorqin rangda, xursand deyish xato bo'lar, lekin xafa ham emas. Xotirjam suhbat davomida ular dunyoning u yog'idan kirib, bu yog'idan chiqadilar.

Jan va Dar'yani ta'tilga kuzatib qoldik. Ular Leon va mushuklari Matisni tashlab ketishdi. Mariya ularni to'yimli nonushtasiz qo'yib yubormadi. Men kunjutli nonni isitayotganimda Mariya stolni kardamonli qaynoq choy, eritilgan yog'da tayyorlangan sariq pishloqli omlet, pomidor, bodring va qizil piyoz halqachalaridan iborat salat, asalli qaymoq, eng sifatli yog'ga bulangan va ustiga maydalangan qizil qalampir sepilgan zaytunlar bilan dasturxonni to'ldirib tashladi. Qanday ajoyib! Yaxshiyamki, bu yerga o'g'illari bilan janubdan mahsulot yetkazib keladigan Solihning do'konk yonginamda.

Dasturxon atrofida seni esladik. Hamisha sen uchun ham ummon tusidagi tarelkani dasturxonga qo'yamiz. Oying uni sahiylik bilan yeguliklarga to'ldiradi. U sening parhezining uchun qanchalar kuyinganlari esingdami? Sen unga aytardingki, taom ---- e'tiqodmas, quvvatga aylanganida yaxshi. Oshiqcha vazn esa haddan tashqari ko'p yeyishdanginamas, kamharakatlik, ovqat haqidagi hayollardan chalg'ituvchi mashg'ulotlarning yo'qligi hamdir, der eding.

Qizim, sening maslahatlaringga amal qilaman, shirinlikka ruju qo'ymayman, kunni bir stakan iliq suv hamda gimnastika bilan boshlayman ---- nonushtaga loyiq harakat qilish kerak.

Yonida dumini likkillatib turgan Mars bilan onasini odatda indamay kuzatib qo'yadigan Leon bugun uzoqlashayotgan mashina ortidan yig'lab qoldi. Dar'ya qolishga harakat qilib ko'rdi

"Jan, balki bir o'zing ketarsan? Leon yig'layapti..."

Bolakayning qorni ochib, injiqlik qilayotgan bo'lsa kerak deya ularni qolmaslikka undadik. Ular jo'nab ketishdi.

Leon Mariya bilan ummon sohiliga chiqqan zahoti tinchib qoldi.

Dar'ya o'g'li bilan ziyrak munosabatda bo'lishga harakat qilayotganliginisezib turaman. Onalik ---- bu faqat instinkt va xohishmas, o'zingda e'tibor va intizomni tarbiyalash ham. Shu bilan birga, bu g'ashlanishu toliqishni yengib o'tish. Dar'ya o'zini aqidaparast ona hisoblaydi.

"Bolaga butunlay baxsh etilgan vaqtning o'rni hech qachon qoplanmaydi, farzandlardan bunga teng badalni kutish befoyda."

Faqat Jan emas, Dar'ya ham charchagan.

"Yogurtni sochlariga surkab, yeguligini yerga sohib, flomaster bilan qo'llariyu bilaklariga chizib tashlaganida joning hiqildoqqa keladi. Har bir ona bunda o'ziga yo'l o'zicha yo'l tutadi. Men uchun devordagi sabzi pyuresi yoki suli bo'tqasini yuvib tashlash qiyinchilik tug'dirmaydi, boshqa birovning esa asablari dosh bermasligi mumkin... Otalik va onalikdan huzurlana olgan odamlarga qoyil qolaman. Menda garchi farzandimga bo'lgan muhabbat va hayotimdan baxtiyorligim mavjud bo'lsa-da, huzur va zavqqa joy ajratolmayapman... "

Dostu, baxt ---- o'zgalar baxti uchun qayg'urishda hamdir. Biz Mariya ikkovimiz Jan va Dar'yani bir muddat ko'zlariga tashvish nigohisiz boqishlari uchun imkon yaratganimiz uchun baxtlimiz.

Seni sog'inganmiz....

Dadang

21

Qo'rqma, tanlagan yo'ling seni jarlikka yetaklamaydi.

Dostu

men Mariya va Leon bilan birga bo'lish uchun novvoyxonadan ikki kunga javob oldim. Bolakay onasini sog'inyapti. Uning sog'inchini itimiz Mars va dengiz sohilidagi sayr yumshatadi. Izg'irin shamol ko'tarilib sayrga chiqishning iloji bo'lmasa yoki kech tushib qolsa, ikkisi ummon ko'rinib turgan deraza qarshisida o'tirishadi. Gohida Leon bilan

velosipedga mingashib, shaharga eltuvchi yo'l bo'ylab sayr qilamiz. Bolakay mening gaplarimga hech qanday belgi- ishora bildirmasada u bilan suhbatlashaman.

"Mana shu yo'ldan Jan oying Darya bilan biz tomonga shoshilmoqda..."

Velosipedning orqa o'rindig'ida o'tirgan Leon o'ziga xos ovozda baqirgancha ortimizda qolayotgan uylarning raqamlarini e'lon qilib boradi. Qiqirlaydi. Oftobdan biroz qurigan asfalt boshqa sohilga ketganlar va qaytmaganlar izini yodida saqlaydi.

Yarim soatdan keyin Leon yelkamni chimdiydi. U charchadi, uyga qaytish kerak, Mariya ham tushkunlikni tayyorlagancha kutib qolgan bo'lsa kerak.

"Marsning yoniga qaytaylik..."

Ummon o'zi haqda hammasini aytib beradigan do'sti paydo bo'lishini boshqa kutmaydigandek qovog'ini solib oldi.

Bolani velosipeddan qo'linga olib, uyga eltgunimcha uxlab qoladi. Mariya uni divanga yotqizib, ustiga xantal tusli ko'rpa tashlab qo'yadi.

"Mayli, biror soat mizg'ib olsin. Bizning qizimizni kabi Leonni ham sayr sokinlashtiradi. Esingdami, sizlar sayrlardan qanday qaytardinglar? Baxtiyor va mudragan holda..."

Qizim, sen uyimizni yaxshi ko'rarding, ammo to'rt devor orasida o'tirib qolishni yoqtirmasding. Bizlarni yo'llar, ayniqsa ummonga eltadiganlari chorlaydi. Ro'zg'orga qarashmayotganliging uchun oyingni jahli chiqardi. Sen yonimga kelvolgancha hiqillashga tusharding.

"Dada, idishlarni chanoqdan shkafga taxlashdan yoki baribir g'ijimlanadigan kiyimlarni qayta dazmollashdan charchashni xohlamayman. Yangi yo'llar, yo'nalishlarda charchatishini xohlayman!"

Qayerga borishingni tasavvur qilu, bunga qancha vaqt va kuch sarflashingni o'ylama. Sen uchun eng yaqin yo'nalish yaqinlaring uchun

xatodek ko'rinishi mumkin. Shuning uchun tanlagan yo'ling jarlikka eltadi, deydiganlarning gaplariga quloq solma.

Leon uxlayotgan paytda Mariya mayizni olma pecheniysi tayyorlashga jazm qildi. Koritsa, muskat yong'og'i, chinnigul, jigarrang shakar kabi ziravorlar tufayli bu pecheniyeining ta'mi odamga ilqlik bag'ishlaydi u juda ham yumshoq, po'rsildoq chiqadi. Faqat olmani maydaroq qirg'ichdan o'tkaz --- shunda xamirda sharchalarni uzib olish qulay va ko'rimli bo'ladi.

Qizim, albatta buni tayyorlab ko'r, juda oson. Senga u yoqda ham ilqlik hamroh bo'lishini istayman.

Mariya sariyog'ni shakar bilan ko'pirtirarkan, bolaligida qo'shnilari bir-birini o'z shirinliklari bilan yo'qlashlarini esga oldi.

"....Birinchi qavatdagi chevar Stella gilosli piroglar pishirardi. Yuzasiga qandupa sepilgan bir juft pirog bo'lagi bilan buvingni yo'qlab chiqardi.

Olib kelgan shirinligini qandaydir betamiz, misol uchun Ella Mey Morsning yengil-yelpi qo'shig'i xirgoyisi bilan dabdabali tarzda topshirardi. Oyim esa unga javoban o'zining mana shu pecheniyesidan chiqarardi. Oyim Stellani o'zi yo'g'ida yengiltakroq deb ta'riflasa-da, u bilan munosabati yaxshi bo'lishiga urinardi. Chevar qo'shnimizning kechalari atrofdagilar eshitadigan tarzda baland xirgoyi qilishimi, yo to'rt marta er ko'rganigami, shunaqa degan bo'lsa kerak. Yaxshi paytlar edi.... Mayli, ko'p ezmalanmay, sutni uzatvor, xamirni qo'shadigan payt keldi. "

Dostu, olmali pecheniyedan senga ham olib qo'ydik.

Dadang

Orzu yo'lida chekinma, unga yetishmoq uchun tavakkal qilishdan cho'chima!

Dostu,

Yaxshimisan, qizim? Salomat bo'lsang kerak. Sen yurgan joylar ham issiq bo'lsa kerak ...

Sendan xat-xabar kutib qolamiz. Mabodo yozmoqchi yoki kelmoqchi bo'lsang, xatjildda manzilimiz bor. Bu biz uchun baxt bo'lardi. Oying hali ham xo'jag'at qiyomli pecheniye pishirmoqda. U Leonga shu qadar yoqadiki, kecha bildirmasdan senga olib qo'yganimizni ham yeb qo'yibti.

Bizning ishlarimiz joyida. Ertaga kechki paytgacha Jan Dar'ya bilan safardam qaytib qolishlari kerak. Hozircha qo'ng'iroq qilishmadi, balki aloqa yo'qdir. Mayli, dam olishsin. Nimadandir g'ashman. Qon bosimimni o'lchatib ko'rishim kerak...

Kecha dasturxonimizni sabzavoti mevalar bilan ta'minlab turadigan Salohni cherkov yonida uchratib qoldim u bamiua deb ataladigan sabzavotlarni yerkazib beradigan mashinani kutib turgan ekan. Sabzavotni yana boshqacha qilib "orqa" deb ham atashadi. Sirtini qoplagan mayda tuklarni aytmasa, xuddi ingichka qalampirning o'zi.

Men bamiyani oq loviya, qizil garmdori va piyoz qo'shib tayyorlashni o'rganib oldim. Garniriga esa qaynatilgan guruch qo'shiladi. Mariyaga ham bu taom yoqdi. Juda ham mazali!

Salohning aytishicha, rohiblar ham cherkov tomorqasida bamiya yetishtirishga urinib ko'rishgan ekan.

"Ruhoniylar ma'qul ko'rgan bu sabzavotni yeb turish kerak. Xo'sh, qo'shni sizga qancha tortay? "

Salohning do'konida bamiya talash bo'lib ketadi. Abadiy qish shahrida sabzavotlarga munosabat o'zgacha. Bamiya tarkibida foliy

kislotasi ko'pligi uchun u homilador ayollarga foydali, ayniqsa birinchi uch oyida. Tugab qolmasidan biror kilo ola qolaman.

"Men sabzavot va mevalar sotishni ellik yoshimdan keyin boshladim. Bungacha gaz idorasida zerikarli ish bilan band edim. Bolalar katta bo'lishdi, kichikroq bo'lsa ham uy qurdim, daraxt ekdim, ammo yuragimdagi notinchlik bosilmadi. O'zlarining sevimli yumushlarini topib olganlarga yovvoyilarcha hasad bilan qarardim. Men esa o'zimning sevimli soham qaysiligini hech ajratolmasdim. Yo qalb ko'zim ochilmagan, yo tuyg'ularimning tili soqovdek, faqat mo'jizaga ishonib yashardim "

Salohning ro'zg'orida bozorlikni xotini bilan kenja o'g'li qilardi. Bir kuni ishxonasidan ertaroq chiqib o'zi ham ularga qo'shilib olibdi de. O'sha yerda, bodring va apelsinli qutilar orasidan unga shu paytgacha ma'lum bo'lmagan haqiqat ochildi.

"Ranglar, tovushlar, iforlar og'ushidagi bu joyda o'z do'konimni masavvur qildim. Idoradan bo'shadim, do'kon uchun ma'qul joyni ijaraga oldim, bor sarmoyamni yangi ishga sarfladim. Shu tariqa mana shu ko'chamizda do'koncha ochdim. Dastlabki oylarda ancha qiynalдим, keyin bari izga tushib ketdi. Narxlarimizni ko'rib turibsan, o'rtachadan pastroq, jni oshirmaymiz. Endi tonglarda ishga borishga majbur bo'lganim uchunmas, yangi kasb-korimni yaxshi ko'rib qolganim uchun uyg'onaman..."

Qizim, hayot o'z tasodiflari orqali orzular va ishonchdan chekinmaslikka, kezi kelganda tavakkal qilishdan cho'chimaslikka o'rgatadi.

Sog'inib kutgan,

Dadang

O'zing olishni xohlagan narsangni ber!

Dostu,

Ertalab pochta qutisida xat borligini ko'rib qoldim. Sendan bo'lsa kerak, deya yuragim hapqirib ketdi. Ey, Xudo, shunday kichkina narsadan ham yuragim sen bilan yuz berganlari aslida tush edi, deya ishonishga shay.

Xat Umiddan ekan...

Qachonlardan beri undan xabar yo'q edi, hayajonga tushganimdan novvoyxonaga oshiqdim. Xatni Amir bilan birga o'qidik.

Umid Istambulda ekan. Xavotirim ancha bosildi. Bu shaharni qanchalar yaxshi ko'rishimni bilasan-ku. Uning zamini odamni huzurga to'ldiradi va asraydi. Yuz yilliklar sari, bo'g'oz ko'prigi ustidagi tuman, yangi damlangan qahva hidi, yog'in-sochindan berkinish uchun qahvaxonaga chaqirib olingan ko'cha mushuklari...

Istambul - tugmalar bilan to'la naqshinkor qutichaga o'xshaydi. Esingdami, oyingda shunaqasidan bor edi? Mayda va katta, marvaridli va "oyoqchali" tugmalar. Qutiga Qo'lingni solib tanlayverasan, ilhomlanasan. Istambulda o'zingni ulkan qutidagi tugmadek his qilasan.

Umid shaharning Kadikey nomli tumanida ekan. Novvoyxonada shaharliklarga ularning odatdagi nonushtasi bo'lgan kunjutli teshikkulchalar pishirar ekan. Xatiga qaraganda uning ishlari joyida. Ilohim, doimo shunday bo'lsin!

Qizim, aslo biz o'zgarmaymiz, borgan sari o'z-o'zimiz bo'la boramiz. Balki aksincha, o'zgara-o'zgara o'zligimizga kelamiz.

"Abadiy qish shahridan ketganimga xursandman, tez fursatda otanamni ham bu yerga olib kelaman. Kambag'allik kulfat emas, kulfat o'zing va yaqinlaring uchun mudom xavotirda yashash ekan. Kunlarni ezgulikni yomonlikdan ko'paytirib yashash bilan, o'z xastaligingni

mayda belgilaridan aniqlab olgancha sog'ayish bilan asraahing mumkin. Men sog'lom bo'lish qiyin bo'lgan shahardan ketdim. Ammo baribir undan minnatdorman. Ko'p ealayman. U yerda ko'p narsani o'rgandim. Masalan, mashaqqatlarni mardlarcha bosib o'tish, non yopishni... "

Dostu, buhronlar tufayli biz yaxshilana boramiz. Bejizga xitoylarning "buhron" ieroglifi yana "imkoniyat" degan ma'noni bermaydi.

Istambulning tarixida bunga ko'plab misollar mavjud, mana ulardan biri. Sulton Sulaymon Usmonlilar imperiyasini yaqin ellik yil boshqargan. Bu payt mobaynida Istanbul taraqqiyoti cho'qqiga chiqdi, ulkan mamlakatlar markaziga aylandi.

Albatta, o'lat, yong'inlar, bo'ronlar, suv toshqinlari kabi buhronlar ham yuz berdi. Sulaymonning hayotiga ko'p marta suiqasdlar uyushtirildi. Bularning bariga qaramay Istanbul qad tiklab turaverdi, uning ahli, hech bo'lmaganda bir qanchasi o'rab turganlarni qadrldaydigan bo'lishdi.

Umid u bilan avvalgidek o'z-o'zi bilan ozod holida qoladigan insonni uchratdi. Bunaqasi kamdan-kam uchraydi.

"Men uning fikrlarini uqa olmasdim. Mana shunisi bilan meni rom qildi..."

Sevib qolish oson, deb tan oladi yigit, har bir kunni sevish esa yanada qadrli.

"Odam to'kis muhabbatni bera olmaydi. Shuning uchun ham u odam. Bu bizning tana quvvatimizdan o'zga narsa, ruhiyatimiz bilan chambarchas bog'liq. Men qo'limdan kelganicha seva olaman. O'zim olishni xohlagan narsani bera olaman!"

Qizim, agar senda muhabbat bo'lmasa, xuddi u bordek harakat qil. O'shanda buloqdagi suv ham ta'mga ega bo'ladi.

Seni sog'ingan,

Dadang.

24

Haqiqatni ko'rish uchun hayotni kuzatsang bas...

Dostu,

sen gul yaproqlari qo'shilgan non yeb ko'rganmisan? Shunaqasini tayyorlashni o'rganayapman. Amirga bir qop quritilgan lavanda olib kelishdi, endi bizda baxor iforini taratadigan non bor. Lavandali xamirga akas asali ko'shayapmiz g'aroyib uyg'unlik. Oying xam oshxonada quritilgan gullardan foydalanib ko'rayapti. Lavanda va dengiz tuzi aralashmasi aralashmasi bilan go'shtni ziravorlaydi, uni yana qovurilgan kartoshkaga sepsa xam bo'ladi. Atirgul va apelsin gulbargini xavonchada kalampirga qo'shgancha tuyib salatlarga ishlatayapti.

Leon novvoyxonada bizga yordam berayapti. Gulbarglarni yaproqlari orasiga qo'shib qolgan butoqcha va gulbandlarni terib oladi, agar shunday qilib turmasa xamirning ta'mi o'zgarib qoladi. Leon ishga bor e'tiborini qarata olmaydi, uni tomchilayotgan suv ham, o'tib ketayotgan mashina shovqini xam, deraza terib tovoqchaga solarkan, gul ortidagi sovqotgan chag'alaylar kichkirig'i xam bezovta qilaveradi. Biz bunga e'tibor bermaymiz. Leonning o'zi qiziqib ketgan taqdiridagina bu jarayonga bor diqqatini jam qiladi. Yalinishlar befoyda.

Munosabatlarimiz do'stlik deganlaridan biroz kattaroq. Avvallari unchalar ham kelisha olmasdik, ammo Jan bilan Darya safarga ketganlaridan keyin ancha yaqinlashdik, birgalikda ishimga kelamiz. Kunning yarmida Mariya Leonni uyga olib ketadi. U yerda Leonni mazali tushlik, Mars bilan sayr hamda yostig'ining tagida saqlaydigan onasining sochqistirgichi kutib turadi.

Leonning sharofati bilan otalik tuyg'ularini qayta boshdan kechirayapman. Avvaliga senga sotqinlik qilmayapmanmi deya biroz o'ng'aysizlandim, keyin yengillashdim. Yuragimda, Dostu, senga bo'lgan tuyg'ularim va bolakayga atalgan taftni ajratib turadigan aniq

bir chiziq o'tdi. Bir buloqdan boshlangan ikki irmoq: o'zanlari aloxida, suvi esa o'sha-o'sha bir xil.

Jan bilan bo'lib o'tgan suhbatlarimizdan birida u Darya va Leon paydo bo'lganidan keyin uning xayotdagi muxabbati va hadiklari anchagina ko'payganini aytgandi.

«Men bir muncha nozikta'b bo'lib qoldim, axir endi ikki sevimli kishilarim uchun ham javobgarman. Hamisha ularning yonida bo'lishim va asrashim kerak!»

Men do'stimning kiftiga qoqib, uning muloxazalarini qo'llab-quvatlagan bo'ldim. Axir oila boshlig'i bir kun davomida o'zini bir necha bo'lakka bo'lishiga to'g'ri keladi. Barchasiga ulgurishi, barchasidan xabardor bo'lishi kerak.

«Aynan shunday balog'atga yetiladi, Jan. Darya va Leonning sendek pushti-panohi bor ekan, ularni hech kim xafa qilmaydi!» Qizim, qanchalar qiyin bo'lsa xam taslim bo'lmaydigan, o'z oilasining g'amini yeydigan, sevganining qo'lini mahkam tutadigan va u yoqtiradigan gullar qachon qiyg'os gullashini biladiganlar haqiqiy erkakdir.

Bir xil erkaklar oilasidan shodlik va quvvat manbaasini topishadi, boshqalari esa balog'atga yetolmay charchashgani, xarob bo'lganlaridan nolishadi.

«Ota bo'lish - ota bo'lib qolishdan ko'ra ancha osonroq!»

Afsuski, ko'plab erkaklar faqat og'izdagina jangchi va boquvchi.

Dostu, odamning aytganlari emas xatti-harakatlari uning shaxsi va senga bo'lgan munosabati haqida so'zlaydi. Haqiqatni ko'rish uchun uni kuzatishgina yetarli.

Seni sog'ingan,

Dadang

Yashash uchun maqbul payt kelishini kutib yashash - be'mani vaj.

Dostu,

uchinchi kechada yomon uxlayapman. Bir xildagi tushdan cho'chib uyg'onaman: bizning oq uyimizga Jan va Daryaning avtomobili yaqinlashadi, biz Lion bilan "Ford"ning yoniga yugurib boramiz, ammo unda hech kim yoq. O'rindiqlarda qor qoplagan qarag'ay butoqlari bor, xolos. Leon yig'lagancha mashinani mushtlaydi...

Qo'rquv ichra uyg'onaman: Menga tuyuladiki, bir lahza oldin erkak va ayol, ya'ni biri haydovchi, ikkinchisi yo'lovchi o'tirgan mashina yonida edim, keyin mashina bir zunga ko'zdan yo'qoldi-yu keyin yana paydo bo'ldi, biroq endi mashinaning ichib bo'm-bo'sh. Mana bu butoqlar nimasi? Hayronman...

Tushlarga unchaligam ishonmayman, ularni ikki toifaga ajrataman: birlarida qolging keladi, boshqasidan esa qochib chiqqing keladi! Tushdan bashorat qidirmayman... Tush deganlari miyadagi murakkab jarayonlar mahsuli deb uylayman

Bo'sh mashina haqidagi tushimni esa Jan va Daryadan havotir olganim bilan izohlaganim ma'qul. Ular allaqachon qaytishlari kerak bo'lsa-da, hozircha qaytganlari yoq. Ular ishlaydigan klinikaga o'tib ham keldim - biroq yangilik yo'q.

Radiodan ummonning g'arbiy sohilidagi bo'ron haqida xabar berishdi. Aholi yashaydigan joylar elektr ta'minotisiz qolgan, halokatlarning oldini olish uchun yo'llar yopib tashlangan. Biznikilarning aniq manzili noma'lum. Ular qish tinch kechadigan janubiy qismida bo'lishsa kerak, mening xavotirlarim esa o'rinsi. Menga aytmasada Mariya ham xavotirga tushgan. Buni bildirmaslik uchun ro'zg'or ishlarga unnab yuradi. Ertalab odatdagidek qahva damlaydi-yu,

nechanchi kundirki, toshirib yuboradi. Bunday beparvolik Mariyadek sarishda ayol bilan yuz beryaptimi, demak u botinan hotirjam emas.

Dostu, bilasanmi, oyingni dunyoda eng yomon ko'rgani kutish. Intizorlik uni aqldan ozdiradi.

"Kutish har xil bo'ladi: kutib olishga hozirlik ko'rganing zamon kutib olishga chiqdang yaxshi, bunga chidasa bo'ladi. Hech narsa qo'lingdan kelmasligini anglagancha kutish esa haqiqiy azob! "

Intizorlik taqdirni vayron qiladi. Ayniqsa yashash uchun maqbul paytni poylab yashab yurganingda. Mana, ha demay risoladagidek inson keladi yoku uzoq kutilgan hodisa yuz beradi va men yashab ketaman, deya o'ylaysan. Bunday tarzda umringni bekorga sarflab yuborishing hech gap emas.

Munosabatlaringda hamisha hushyorlikni saqla. Leon novvoyxonaga borishni istamayapti. Qo'l uchida ovqatlanadi, deraza oldida Mars bilan o'tirgancha sukut saqlaydi. Zetikadi. Kecha chappa bo'lib ketgan mashina rasmini chizdi. Mariya bu kimning mashinasi deya so'rganida, rasmni yirtib tashladi.

Bu xavotirlar menga tinchlik bermayapti, qizim.

seni sog'inamiz...

Dadang

26

So'z topilmay qolganda...

Dostu,

kechir, anchadan beri yozmay qo'ydim. Yozishga urinayotganim befoyda. So'z topolmay qolayapman... Jan va Daryadan ajralib qoldik... Ular avtohalokatga uchrabdi. Mashinalari qarag'ayga urilib, jarlikka qulabdi. Politsiya klinikaga qo'ng'iroq qilib, bo'lib o'tgan halokatdan xabardor qilibdi. Janning hamyonidan klinikq guvohnomasi va bizlarning birga tushgan suratimizni topishibdi endi bu surat menda.

Qizim, boshqa yozolmayman...

Kechir!

27

Og'riq va qo'rquvdan qochma, ularning ko'ziga tik qara!

Dostu,

ikkinchi haftadirki, qor yog'ayapti. Beshovqin, to'xtovsiz. Xuddi to'xtamaydigan oq marsiyadek. Sovuq iqlim tufayli qor qoraygan laxtaklarga aylanmaydi, qat-qat yog'ayotganidan ertalablari yaxlit oq qog'oz ko'rinadi. Faqat bu gal emas...

Bo'lib o'tgan hodisadan keyin biz uchun vaqt to'xtab qolgandek go'yo...

Yuzinni qilish artgancha oppoq sharfga burkangancha oppoq ko'chalar bo'ylab yuraman, tanish joylar yonidan o'taman.. Mana, bizning novvoyxona... Amir bitta o'zi xamir qoryapti, pechda esa olov ko'rinmaydi - g'alati, go'yo mening vujudimdagi sovuq manzar kabi butun shahar uxlayapti...

Birdan deraza romlari yashil qahvaxonaning oynalarini taqillatgim va "Ey, nega qahvaning qanday maydalanishi, finjonlarning jarangi eshitilmayapti, nega kraussanlar mijozlarsiz sovib boryapti?" deya baqirgim kelib ketdi.

O'ychan holda ketayotgan juvonning (qizil shlyapasi tagidan oqargan soch tolalari chiqib turardi) to'xtatgim va unda "Nega odamlar botinlaridagi hayotni o'ldirib, qabrgacha mavjudliklarini sudrab borishadi?" deya so'ragim keldi.

Osmondan bunchalar uzoq yog'dirayotgan qorlarni to'xtatishni so'rasammi deyman. Qizim, o'shanda biz quyoshni kutgancha pardalarni suramiz, radioni qo'yamiz, xo'jag'at qiyomli picheniya pishiramiz va hammani mehmonga chaqiramiz.

Bizning uyimizga biz tezda sevib qoladiganlar kelishadi. Bir birimizga yangi hikoyalar aytib beramiz va bizlarni qutqarib qoladi.

...Leon deraza yaqiniga kelmaydi, ummon sohiliga ham chiqqisi yoq. Unga o'zimizning qayg'umizni ko'rsatgimiz kelmaydi, ammo bolakay buni his qiladi. Kecha Mariyaga "Oyim qor parchasiga aylanib qolgan. Buni bilaman" dedi. Oying ko'zyoshlarini yashirgancha bosh irg'ab qo'ydi.

Mana shu daqiqada butun borlig'im bilan ularning qayg'usini o'zimga olgancha uzoqlarga olib ketgim keldi. Ammo bu ishim qochoqlik bilan barobar bo'lardi. Men esa hech qachon og'riq va qo'rquvdan qochmaganman - ularning ko'ziga tik qaraganman.

Sen bizni tark etganingda, qizim, oying ikkimizni muhabbat saqlab qolgandi. Muhabbat hammasini yengadi, ya'ni lotinchada "Amoi vinct omnia". Bizlarning hayot yo'lidagi g'ovlarni oshib o'tgan muhabbatimiz o'zimizni saqlab qolishimizga yordam berdi. Har qanday qo'rqinchli o'zgarishlarda ro'yolar vayron biladi, haqiqat esa saqlanib qoladi.

Seni juda sog'ingan...

Dadang.